

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
SAN`AT KAFEDRASI

5140900 - kasb ta'limi (5211200-amaliy san'at)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
Tursunova Supiyaning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: **zardo'zlikda kompozitsiya**
(panno misolida)



Bajardi:

bitiruvchi: **Tursunova Supiya.**

Ilmiy rahbar:

o'qituvchi: **Avliyoqulova N.M.**

Ilmiy maslahatchisi:

p.f.d. dots: **Abdullayev S.F**

Taqrizchi:

O'z.B.A a'zosi. Usta zardo'z:

B. Jumayev

Kafedra mudiri:

p.f.n. **Madrimov B.X**

Fakultet dekani:

p.f.d. prof. **Barotov. Sh.R**

Buxoro - 2014 yil

Mavzuning dolzarbligi: Zardo`zlikda kompazitsiya (namoyon naksh) haqida ma`lumotlar va shu mavzu bilan boqliq bo`lgan jarayonlar.

Ushbu mavzuning o`rganilishi o`quvchi yoshlarga o`zbek xalq san`ati va Buxoro zardo`zlik san`ati qaqida to`la ma`lumotga ega bo`lish uchun katta aqamiyat kasb etadi.

Tadqiqod maqsadi: O`zbek xalq san`atida Buxoro zardo`zlik san`atining o`z zardo`zlik asarlari bilan tanilgan qunarmandlar, shuningdek kolledj va Oliy ukuv yurtlarida o`rganadigan talabalarga zardo`zlik san`ati namunalari, naqshlari va tikish texnikasi bilan tanishish.

Tadqiqodning axamiyati: zardo`zlik san`ati sirlarini, ish uslubini yoshlarga o`rgatish, zardo`zlik uchyn ishlatiladigan naqsh elementlaridan naqsh kompozitsiyalar tuzishni o`rgatish.

Ilmiy yangiligi: O`zbek xalq san`atida Buxoro zardo`zlik san`atining o`ziga xosligi, boshqa ilgari tikilgan zardo`zlik sant`ati asarlaridan shakl, tikilishi va mazmuni bilan o`zgacha aqamiyat kasb etadi.

Tadqiqod predmeti: zardo`zlik san`ati asarlarida talabalarning tikish jarayonini o`rganish yo`llari, naqsh shakllari va tikish usullarini izlash.

Tadqiqod ob`ekti: tadqiqot strukturasi tarkibi ikkita asosiy bobdan, rangli ilovalar va xulosadan iborat.

ZARDO'ZLIKDA KOMPOZITSIYA (panno misolida)

Reja :

Kirish

I BOB. Buxoro zardo'zlik san'ati haqida ma'lumot.

1.1. Buxoro zardo'zlik san'atiga bir nazar

1.2. Zardo'zlik hunarining tashkil etilishi

1.3. Zardo'zlik san'atining tarixi

II BOB. Zardo'zlikda kompozitsiyasi tuzish va tikish jarayonining borishi.

2.1. Zardo'zlik san'ati turlari, tikish uslublari , ishlatiladigan xom ashyo va asbob uskunalari

2.2. Zardo'zlikda naqshlarning qo'llanilishi va kompozitsion yechimi

2.3. Zardo'zlikda panno (namoyon naqsh) bajarish jarayoni

a) Panno uchun kompozitsiya tuzish

b) Amaliy ishning tikish jarayoni

III. Xulosa

Summary

In this research paper contains information about gold embroidery art. The art of sewing gold in the body which is considered the birthplace of the East, is full of history.

Babylon in ancient times was known for its embroideries and according to Pliny, there just was invented splendorful embroidery fabric yarns of different colors.

Gold embroidery art Bukhara reached brilliant in the Central, takes on his artistic expression significant place.

Everyday speaks of intense live creativity that allowed web masters to create masterpieces of art, included a valuable contribution to the general the rich cultural Uzbekistan heritage of peoples.

Of great interest are given information about in Toolkit about instrumental, embroidery their tissues, gold and silver threads, on imports into Central Asia

Passing knowledge of youth with proper use of new educational technologies, plan their activities, taking into account education, all of its components, we will achieve the goals set before him.

Origins of decorative and applied arts goes back centuries. Closely associated with the life, customs and traditions, it was the widespread form of art. In recent years, the government adopted resolutions aimed at the revival of folk arts and crafts. The main task of organizations recover for forgotten crafts, craftsmen in production and marketing of products

Kirish

Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini qurish, avvalo, yoshlarimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, kasb mahoratiga, ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirishga, kadrlar tayyorlash jarayoniga malakali mutahassis-o'qituvchilarni, mohir kasb ustalarini jalb etishga boq'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan mustaqilligimizning ilk yillaridayoq bayon etilgan bo'lib, huquqiy jihatdan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida asoslab berilgan.

Yurtboshimiz I.A. Karimov "O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik xolatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim" ekanini ko'p marta uqtiradi.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish q'oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi

Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoq'imiz kerak». Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda respublikamiz hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'q'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analari, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Usto bobokalonlarimizning hayotiy hamda ijodiy yo'lini o'rganish, ularning sermahsul an'alarini bilish, ular yaratgan uslub va yo'llarni yanada takomillashtirish, go'zallikka bo'lgan intilishlarini chuqur his etish davrimiz talab taqazosi bo'lib qolmoqda.

Qadimshunos va tarixchi olimlarimizning tadqiqotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning amaliy hunarmandchiligi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan. Bu markazlarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan buyumlar ishlab

chiqarilgan va bozorlarda sotilgan. Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon, Namangon viloyatining Chust, Andijon viloyatida Shahrihon, Buxoro viloyatida Gijduvon, Buxoro shahri, Qashqadaryo viloyatida Qarshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surhondaryo viloyatida Boysun ana shu markazlardandir. Bu shaharlarda hunarmandlar alohida-alohida yoki to'p-to'p bo'lib yashashi natijasida har bir mahalla muayyan kasbiy hunar nomi bilan atalib kelingan. Bular misgarlik, to'qimachilik, po'stindo'zlik, yurmado'zlik, pichoqchilik, zargarlik, ko'nchilar, mahsigarlar, do'ppido'zlik, tandirchilar, va o'nlab boshqa turdagi hunar nomlarini misol qilish mumkin.

Bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur haqida ma'lumotlarga ega bo'lganimizda fikr yuritgan edikki, bu ulug' zot chet el yurishlaridan keyin Samarqandga 150000 dan ziyod turli kasb egalari va hunarmandlarni olib kelib ular uchun shaharlarda va ayrim qishloqlarda hunarmandlar mahallarini tashkil qilgan ekanlar. Bunday harakat va uzoqni ko'ra-bilish albatta Movaraunnahrning moddiy-madaniy taraqqiyotini yanada yuksaltirishga qaratilgan reja bo'lgan. Bunday an'ana hozirgi kunimizda ham davom etib yangidan-yangi kasb-hunar bilimgozlari faoliyat ko'rsatib o'z samarasini bermoqda.

I BOB. Buxoro zardo'zlik san'ati haqida ma'lumot

1.1. Buxoro zardo'zlik san'atiga bir nazar.

Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha SHarq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha erda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuqrat qozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'zi kiyim-kechaklar faqat imperator a'yonlari va aslzodalarigagina mansub bo'lgan.

Sosoniylar davrida Eron podshohining saroyida ham zardo'zlik san'ati rivoj topgan deyishga asos bor, chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. Hozirgi Eronda XV-XVII asrlardagi zardo'zlik namunalaridan anchagina yodgorlik saqlanib qolganligi badiiy an'analar uzoq yillar davomida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib zardo'zlik san'atini o'rgangan. XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmonli turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar, qrim va Kavkazning har qayeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt va kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha erda zardo'zlik ham rivojlanavergan. O'rta Osiyoda ham zardo'zlik san'ati, shubhasiz, o'zining chuqur ildiziga ega. Shu narsa ma'lumki, masalan, 1403-1406 yillarda

Samarqandga sayohat qilgan ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida, Temur saroyida zardo'zlikning milliy kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Esdalik sahifalarida elchilarni qabul qilish marosimiga bag'ishlab o'tkazilgan dabdabali ziyofatlar ta'rifini keltirib yozar ekan, zardo'zlik usulida tikilgan ash'yolarni bir necha bor eslab o'tadi. Zar tikilgan ko'rpa-to'shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida batafsil hikoya etiladi. Klavixo erkaklar va ayollarning zar ipda tikilgan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi.

Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "Hindiston safarnomasi" risolasida Shohruh 1442 yili Hindistonning Kal'kutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilaridan zardo'zi do'ppi ham sovg'a qilib berib yuborganini qayd etib o'tadi.

"Ishratxona" maqbarasi haqidagi 1465 yilgi hujjatlardan birida ham zardo'zlik buyumlari haqida eslab o'tilar ekan, "zardo'zi tikilgan gunafsharang dasturxon (tuya junidan to'qilgan mato) astari malladan" va "zardo'zi tikilgan gunafsharang darparda, astari malladan" degan satrlarga ko'zimiz tushadi.

Hirotda Alisher Navoiy davrida yashab ijod etgan Vosifiy o'zining risolalarida zardo'zlik kasbi to'g'risida so'z yuritgan. Adabiy yig'inlarning qatnashchilari haqida gapira turib, Hasan zardo'z degan bir shaxsning nomini alohida uqdirib o'tadi va uni Hirotning eng obro'li, "istiqboli porloq yoshlari" qatoridan o'rin olganligini aytadi.

Podshoh Aleksey Mixaylovichning Abdulazizxon huzuriga yuborgan elchilari (1669-1671 y) Boris va Semen Pazuxanlarning hisobotida yozilishicha: elchilar Buxorodan jo'nash oldidan zardo'zi chopon, telpak va belboq sovqa olganlar. Bu esa zardo'zlik Buxoroda XVII asrdayoq rivoj topganligidan dalolat beradi.

XVII asrning oxirida yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lib, u zar ip bilan matolarga kashta tikkan. Shunday qilib hozirgi kungacha Buxoroda saqlanib kelayotgan kashtachilik san'atining o'ziga xos va qiziqarli bu turi g'oyat uzoq davr mobaynida sayqal topgan va takomillasha borgan. Buxorolik zardo'zi ustalarining o'ziga xos sermazmun naqshlari, g'oyat nafis texnik uslublari, mukammal terminologiyasi, uzoq, davrlar mobaynida sayqal topgan rang-barang choklarini nazarda tutsak bu san'atning tarixiy rivojlanish jarayonini to'laroq tasavvur etishimizga imkon beradi.

XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san'atining bir turi bo'lgan zardo'zlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatini aks ettirgan.

Mazmuni jiqatidan xalqchil bo'lgan va qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining-turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan ipak ip bilan kashta tikishga qaraganda nozik didni talab qilgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilarning ehtiyoji uchun tikilgan, ba'zangina shahardagi boy ayonlar uchun tayyorlanganlar.

Ota-bobosidan meros bo'lgan kashtachilik kasbi bilan shug'ullangan yuzlab qo'li gul ustalar Buxoro amirining hashamatli saroyidagi qimmatbaho zardo'zi kiyimlarni tayyorlash bilan band edilar.

Buxoro zardo'zi ash'yolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilardi, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi.

Erkaklarning zar bilan tikilgan to'n, kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog', salla, kuloh va jul faqat xonga va uning buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birontasi ham yuqorida aytib o'tilgan kiyimlardan hech birini o'ziga buyurtirishga haqi yo'q edi, ular zarboft kiyimlarni amir sovga qilgandagina kiyishlari mumkin edi.

Ayollar va bolalarning zardo'zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning a'zolarigagina kiyish rasm bo'lgan. Bu kiyimlarni ular bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8-10 yoshdan katta bo'lmagan o'g'il bolalariga sunnat to'yi munosabati bilan zarboft to'n kiydirishgan.

XIX va XX asr boshlarida, ya'ni 1785 yildan to 1920 yilgacha Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli bo'lgan zardo'zi kiyimlari hozirgi kunda bizgacha etib kelgan yagona yodgorlik nusxalardir.

Mang'itlarning birinchi sulolasi vakillariga mansub bo'lgan zardo'zi ash'yolar bizgacha deyarli etib kelmagan. Ammo Haydar (1800-1826 y) zamonidan yagona yodgorlik sifatida. zardo'zi mahsi saqlanib qolgan. Mahsiga 1224 y raqami tikilgan, bu melodning 1809-1810 yillariga to'g'ri keladi. Mazkur raqamning uchrashi shu paytgacha zardo'zi kiyimlarda ro'y bergan yagona holdir.

Amir Nasrullodan (1827-1860 y) anchagina zardo'zi kiyimlar saqlanib qolgan. Buyumlarning ko'pchiligi 1895 yildan 1911 yilgacha bo'lgan davr Abdulahadga mansubdir, zero buxorolik kashtachilarning zardo'zlik san'ati shu davrda gullab yashnagan deb hisoblanadi.

Buxoroda zardo'zlik 1920 yil amir taxtdan ag'darilguncha rasmiy jihatdan saroy san'ati hisoblanardi. Bu shaharda tayyorlanadigan zardo'zi buyumlarning deyarli hammasini egallab olgan katta buyurtmachini yo'qotgach, tabiiyki, zardo'zlik korxonalari keskin kamayib ketdi. Zardo'zchilar Sovet hokimiyati o'rnatilishi bilanoq darrov hunarmandchilik artellariga birlashib, mayda buyumlar, do'ppilar va ayollarning ayrim kiyim-kechaklarini tayyorlashga kirishdilar.

Revolyutsiyaning birinchi yillaridagi og'irliklarga qaramay, zardo'z ustalar va ularning shogirdlari san'atlaridan ajoyib namunalar yaratdilar, unga yangicha mazmun, yangicha sayqal, yangicha kompozitsiya berdilar.

Revolyutsiyagacha zardo'zlikda mutlaqo ishtirok etmagan xotin-qizlar zardo'zlik artellariga jon deb a'zo bo'lib, tajribali usta kashtachilar ko'magida zardo'zlik san'atini tezda o'rganib oldilar. Kashtachilik san'atining tajribali ustasi, iste'dodli gulkor usta Omonjon Majidov va qo'li gul kashtachi usta Fayzullo G'aybullaevlar artelga kelgan yoshlar, ayniqsa, ayollardan moqir kashtado'zlar yetishib chiqishidao'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.

1.2. Zardo'zlik hunarining tashkil etilishi

Zardo'zlik podshohlik davrida buyum tikuvchining qo'liga o'tguncha murakkab hamda uzoq ishlovdan o'tgan. Zardo'zlik buyumlari quyidagi bosqichlarda bajarilgan:

1. Ustaxona bichiqchisi buyumni andaza bo'yicha bichgan.
2. Tarqkash andazalarni tayyorlagan va podshohga ko'rsatgan. Unga ma'qul tushgandan so'ng zardo'zlarga uzatgan.
3. Ustalar andaza va matoni olib, kashtalarning ma'lum miqdordagi ayrimayrim qismlari uchun tayyorgarlik ko'rishgan. Tikish uchun to'shama (pilta) tayyorlashga o'tilgan. Qog'ozda chizilgan naqshni teriga, karton yoki qalin qog'ozga axta yordamida tushurib, qalamda yoki qora bo'yoqda naqsh ustidan yurgizib chizib chiqqan. Shutur gardan qaychi bilan naqshlarni kartondan qiyib olgan, agar qiyin bo'lsa, ikkinchi kishi unga yordamlashgan. Gullar kesilganda chambarak hosil bo'ladi.
4. Ta'var pishiq o'ralgach, matoni tikishga o'tilgan.
5. Ta'varni ish batamom nihoyasiga etgandan so'ng olib tashlashgan. Ba'zi hollarda buyum batamom bitgandan so'ng bo'z taglikning bir qismi olib tashlangan yoki zarur qismi joyida qoldirilgan. Ayollar hamda erkaklar kiyimlari, so'zana, yostiq jildlari, joynamozlar, ot jullari alohida korcho'blarda yoki bitta korcho'bda qismlarga ajratilib tikilgan. Chopon uch yo'lda tikilgan. Ot jullari korcho'bda avval uning pastki qismi tikilib, uning yuqori qismini pay ichiga qayirib, tikib qo'yilgan. Kashtalari qo'lda tikilib, julning yuqori, ikkinchi qismini tikishga o'tishgan.

1920 yilda amirlik aqdarilib Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilgach barcha san'at turlari kabi zardo'zlik san'ati ham xalq qo'liga o'tdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida yuz bergan qiyinchiliklar Eron, Arabiston hamda Rossiyadan keltirilmadigan zar simlarining to'xtab qolishi zardo'zlik san'atining rivojiga putur etkazdi. Bu paytda zardo'zlik buyumlarining xillari ham o'zgardi. Keyinchalik esa dabdabali kimxob to'nlar o'rniga do'ppi, ayollarning nimchalari, sumka, tufli, al'bom muqovalari, choyshablar, ko'zoynak qiloflari shuningdek divan yostiqlarining qilofi va boshqalar tikila boshlandi. Zardo'zlik san'ati bilan amirlik zamonida faqat erkaklar shug'ullangan, chunki ayol qo'li tegsa, zar xira tortadi deb ularni bu ishga jalb qilinmas ekan. 1930 yilda Uzbekistonda rassomlar uyushmasi, uning qoshida zardo'zlik arteli tashkil etilib unga tajribali zardo'zlar taklif etildi. Dastlabki yillarda artel' xalq talablarini to'liq qoniqtira olmadi. Lekin keyinchalik artel' kengaytirilib fabrikaga aylantirildi. Ishchilar va ustalar soni kundan kun ortib bordi. Usha davrda talantli rassom Olimjon Majidov, talantli zardo'z Fayzullo G'aybullaev, Umar Hayotov va boshqa ustalar ko'plab shogirdlar qabul qilishgan edi. Ular yangi uslubda tikish, yangi shakllar topish ustida ijodiy izlanib, turli buyumlar tikishardi. Chunonchi milliy kiyimlar, uy-ro'zqor buyumlari, sovg'alar va maxsus buyurtmalarni bajarishardi. Milliy kiyimlar ichida eng keng tarqalgani zardo'zi do'ppilar bo'ldi. Jumhuriyatimizni turli chekkalariga keng tarqalgan bo'lib, har bir rayonning o'ziga xos kashta tikish usuli bor. Zar do'ppilar faqat Buxoroda tikilardi. Ayniqsa, xotin-qizlar paranji tashlashidan so'ng ular chiroyli do'ppilar kiya boshladilar. Buxorodagi zardo'z

ustalar do'ppilarning yangi ajoyib nusxalarini yaratdilar, ayniqsa qizlar, kelinchaklar kiyadigan yoqut, olmosdek charaqlagan "Gulnoz", "Bahor", "Navro'z", "Dilorom", "Gulbahor", "Dilafro'z", "Ra'no", "Festival", "Qo'shbodom" va "Baxt" deb nomlangan do'ppilar tikildi.

1960 yillardan buyon xotin-qizlar oyoq kiyimlari (ham uyda, ham ko'chada kiyish uchun mo'ljallangan), tuflilir zardan (shakli uch xil) tikila boshlandi, hamma joyi zar bilan bezatilgan yaxlit "sadbarg", orqasi yarim ochiq zardo'zi tufli, orqasi hamda uch qismi ochiq zardo'zi tufli.

50-yillarning oxiri 60-yillarning boshida chet ellardan tashrif buyurgan do'stlarimizning ehtiyojini qondirish maqsadida fabrikada turli sovqalar, ya'ni al'bom muqovalari, ko'zoynak qiloflari va boshqalar ishlab chiqarildi. Zardo'z buyumlarga lola, oftob, archa, bodom, minorai kalon, "Somoniy maqbarasi" kabi naqsh va rasmlar aks ettirildi. Zardo'zlik san'atining yirik namoyandalaridan biri, buxorolik zardo'z usta No'mon Aminovdir. U Buxoro shaqrida 1908 yilda zardo'zlar oilasida dunyoga keldi, otasi Olimjon Majidov Buxoro amirligi ustaxonasida 12 yil ishlagan edi. U No'monjoga yoshlik choqidanoq zardo'zlik sirlarini o'rgata boshladi. 1920 yilgacha Buxoro amirining ustaxonasida 300 ta erkak shug'ullanar edi. No'monjon asta-sekin gulburlik, rassomlik, zardo'zlik sirlarini egallay boshladi. 1934 yilda Dzerjinskiy nomidagi artelda zardo'zlik faoliyatini davom ettirdi. Artelda ishlash uning uchun uncha qiyin bo'lmadi, aksincha zavqli bo'ldi. U erda zardo'zi to'nlar, buxorocho do'ppilar, telpaklar tikildi. U artelda san'at dargohining jonkuyarlaridan biri bo'lib xizmat qildi. Artel qoshida FZO maktabi

tashkil etildi. Maktabni bitirib chiqqan yoshlar tsexda ishlay boshladilar va keyinchalik mashqur ustalar bo'lib etishdilar. Masalan, Xalima Xalilova, Zubayda Yahyoeva, Zubayda Raqmatova, Mubashir Kamolova, Xakimjon Xayotov va boshqalar. No'monjon Aminov o'z hamkasblari bilan 1947 yili A.Navoiy nomidagi opera va balet katta teatri uchun hajmi 7 X 27 bo'lgan sahna pardasi tayyorladi. V. Stolyarov bu pardaning eskizini chizdi. Unda uzunligi 2,90 m li yettita majnuntol bajarildi.

N.Aminovning ko'pgina asarlari har xil muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Uning asarlari turli davrlarda bajarilgan bo'lsada, san'atkorning mahorati, izchilligi, tabiiyligi va yangi uslubining tiniqligi bilan ajralib turadi. N. Aminovning ijodidagi yutug'i qotib qolmay zar tikish xillarining turli qirralarini izlab shu sohada yangiliklar yaratdi. Toshkentdagi xalq amaliy san'ati muzeyidagi "Go'ri Amir" tasviri juda chiroyli va ta'sirchan chiqqan. Namoyon Samarqandning 2500 yilligiga bag'ishlangan edi. Bu asarda uslub hamda ijro san'atining izchilligini ko'ramiz.

N. Aminov "Bodom" asarini yaratdi. Bu asarda kompozitsiya juda sodda hamda tushunarli chiqqan bo'lib, unda anchadan beri unutilib ketilayotgan islmiy naqshni qo'llab, ajoyib rangli bir asar yaratdi. Talantli usta o'z asarlarida san'atga, hayotga bo'lgan mehini ifodalashga intildi. U yoshlarga xalq amaliy san'atining noyob xazinasini chin yurakdan o'rgatdi va zardo'zlik san'atini rivojlantirdi.

Revolyutsiyagacha Buxoroda hammasi bo'lib 300 dan 350 nafargacha zardo'z usta ishlaganligi ma'lum. O'rta Osiyoning boshqa hunarmandlari singari

zardo'zlar ham o'rta asr hunar shirkatlari ko'rinishidagi maxsus tashkilotga uyushgan edilar. Zardo'zlar ishlari ustidan nazorat o'rnatuvchi by tashkilot o'zining saylanuvchi ma'muriyatiga ega bo'lib, barcha rasm-rusumlarga va urf-odatlarga izchil amal qilar, tantana va yig'ilishlar o'tkazib turar edi. Bulardan tashqari, u ko'proq diniy ruhdagi ba'zi qoidalar majmuasini hamda zardo'zlik hunarining kelib chiqishi haqidagi afsonaviy rivoyatlarni o'z ichiga olgan, mazmun e'tibori bilan tsex ustaviga o'xshab ketadigan o'z risolasiga ham ega edi.

Amirlikning ag'darilishiga qadar Buxoroda mavjud bo'lgan feodal davri ishlab chiqarish munosabatlariga xos bu barqaror korporatsiyasiz zardo'zlik hunarining qaror topishini tasavvur etish qiyin edi. Tsex uyushmalariga kiruvchi ustalar ham iqtisodiy jihatdan, ham maishiy munosabatlar jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq edilar. Bunga ularning birbirlari bilan yon qo'shni, jon qo'shni bo'lib istiqomat qilganliklari ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Zardo'zlarning ko'pchiligi shaharning janubi-g'arbi qismida, Mirdo'stumbiy guzarida va tevarak-atrofdagi guzarlarda yashar edilar. Bozorbop buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalarining katta qismi aynan shu Mirdo'stumbiy guzarida joylashgan edi.

Amirning saroy ustaxonalariga qarashli ustalar bilan bir qatorda xususiy ustaxonalarining egalari hamda ularga yollanib ishlovchi xalfalar ham mazkur tsex uyushmalari tarkibiga kirar edi.

Zardo'zlarning butun shaqar tsexi uyushmasi tepasida ular ichidan saylangan eng hurmatli va tajribakor kishilar turar edilar. Ularni bobo yoki

oqsoqol deb atar edilar. Zargarlarning tsex uyushmasi ichida (nisbatan oz sonli boshqa hunarmandchilik uyushmalarida bo'lgani singari) bobo u qadar muhim rol' o'ynamagan. U faqat eng izzatli kishi qisoblanib, rasmiy ravishda saylab o'tirilmagan. Keyingi paytlarda u mutlaqo saylanmagan ham. Bobo diniy-axloqiy masalalar bilan shug'ullanib, ishi asosan uyushmadagi ishchilarning xatti-qarakatini kuzatish bo'lgan xolos. Bobo bo'lmagan paytlarda uning vazifasini oqsoqol bajargan.

Oqsoqol uyushma a'zolari turmushining iqtisodiy va maishiy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etgan. Amir saroyi va amirlik ma'muriyati bilan munosabat o'rnatishda u tsexning rasmiy vakili bo'lgan. Ustaxonalararo yirik buyurtmalar olishda, taqsim qilishda va mahsulotni sotishda o'rtada turgan, ishchi kuchini taqsim qilishda yoki usta, xalfa, shogird va hokazolar o'rtasida paydo bo'lgan nizoli masalalarni hal etishda mutasaddilik qilgan. Ayniqsa, saroy ustalari taomilida bo'lmagan, ammo amir saroyi uchun zudlik bilan tayyorlanishi lozim bo'lgan zardo'zlik buyumlari yasashda ham, oqsoqol o'rtada turgan. Bular ro'mol, belboq, ayollar bezagi, xaltacha singari buyumlari bo'lib, ko'pincha ularni chakana ustaxonalarning egalari qilishgan. Bunday paytda amirning bosh amaldorlaridan qushbegi zarur buyumlarning ro'yxatini oqsoqolga havola qilgan. Oqsoqol ularni xususiy ustaxonalar va yakka holda ishlaydigan ustalardan yig'ib olgan, narxini buyum egasining o'zi bilan kelishgan. Buyumlarni qushbegi mahkamasiga keltirib, pulini hisoblab olgan-da, ustalarning haqini to'lab, rozi qilib chiqqan.

Amirning shahar tashqarisidagi Shirbudun (yoki Shirbadan) va Sitorai Mohi Xossa saroylarida har yili uyushtiriladigan bozor-saylida zardo'zlik buyumlarini sotishni tashkil etish ham oqsoqolning zimmasiga kirgan. Sitorai Mohi Xossada ikki hafta, Shirbudunda to'rt-olti hafta davom etadigan bu saylda ishtirok etishi hukumat tomonidan qonuniylashtirilgan, tsex uyushmalari uchun vaqtinchalik savdo rastalari qurilgan.

Oqsoqolga xizmati uchun ma'lum haq to'lanmagan, sovg'a-salomlar tortiq qilish bilan kifoyalanganlar. Masalan, buyum sotgan ustalar unga choypuli berganlar. Saroy topshiriqlarini ado etgani uchun unga amir xazinasidan pul yoki to'n in'om qilingan. Navro'z bahonasi bilan o'tkaziladigan yuqoridagidek saylning nihoyasida hukumat nomidan oqsoqolga sarp o hamda saylda moli sotilgan kishilar tomonidan pul hadya etilgan. Shogirdga oq fotiha berish, uyushma a'zolarining hovli yoki oila to'ylari munosabati bilan turli rasm-rusumlarni ado etishda rahnamolik qilgani uchun oqsoqolga to'nlar, matolar in'om etilgan.

Oqsoqolga yordamchi qilib yana poykor ham tayinlangan. Poykor yosh ustalardan saylanib, xuddi oqsoqol va bobo singari, ma'lum maosh yoki haq bilan ta'minlanmagan. Unga ham uyushma a'zolarining tui. ulimi kabi marosimlarda boshidan oxirigacha qatnashganligi uchun xizmat haqqi deb arzon mato yoki arzon chapon berilgan, xolos.

Uyushma ustasidan uzluksiz va mashaaqqatli hunar ta'limini olgan va bu hunarda mustaqil ishlay boshlash uchun usta oq fotiha bergan kishigina uyushmaga a'zo bo'lgan.

Buxoro ustalarining zardo'zlik kasbi otadan bolaga meros bo'lib kelgan. Asli zardo'z bo'lgan oilaning o'qil farzandi otasidan zardo'zlikni o'rganib, o'z navbatida u o'z bolalariga o'rgatgan. Pushti kamaridan o'g'li bo'lmagan otalar bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga o'rgatganlar. Kasbning avloddan-avlodga meros qolishi odatdagi hol bo'lganiga qaramay, zardo'zlik ham boshqa kasblar bilan bir qatordan o'rin olgan. Uning tarkibida biz misgarlarni ham, zargarlarni ham, dehqonlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Zardo'zlik kasbini o'rgatish uchun 10-12, ayrim hollardagina undan kattaroq yoshdagi bolalarni jalb etganlar. Bolani usta oldiga olib borish o'ziga yarasha tantana bo'lgan. Bolaning ota-onasi va qarindosh-uruqlari buy degan bo'qirsoq va qolvaytar qilib, ustaning quzuriga kelganlar va "bolaning go'shti sizniki, suyagi bizniki", qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o'sha paytdayoq birgalikda tanovul etilgan.

Usta bolaga hunar o'rgatishdan tashqari butun o'qish davomida uni oziq-ovqat bilan ta'minlab ham turgan. Ikkala kelishuvchi tomon orasida yozma ravishdagi shartnomalar bo'lmagan. Kasb o'rgatish tekin olib borilgan. Yangi shogirdga chinakam ta'lim berish ishlarini usta birdaniga boshlayvermagan. Dastlabki paytlarda shogird uy yumushlariga qarashgan, ustaxonani supurib-sidirgan, suv tashigan, bozor o'char qilgan, tikuvchilarga yordam bergan, onda-sonda ish orasida, uncha-muncha qatim tortib turgan. Oradan bir yil yoki undan sal ko'proq muddat o'tgandagina unga tikish sirlari o'rgatila boshlangan. Shogirdga mablaqq' to'lash borasida ma'lum qoida bo'lmagan. Hunar o'rgatish muddati ham cheklanmagan. Ta'lim berish 4 yildan 7 yilgacha davom etgan,

bordi-yu, shogirdi o'ta qobiliyatli chiqib qolsa, bunday malakali ishchisidan mahrum bo'lishni istamagan ustoz uni 8-10 yilgacha ham saqlagan. Bunday paytlarda shogird oqsoqolni o'rtaga solib, ustasi tezroq ruxsat berishini so'ratgan. Bordi-yu, shogirdining talabi o'rinli bo'lsa, oqsoqol ustadan shogirdiga yo oq fotiqa berishini yoki bo'lmasa mehnatiga haq to'lashi lozimligini aytgan. Albatta, shogirdga to'lanadigan haq xalfalarga to'lanadigan haqdan ancha kam bo'lgan.

Norozilik paydo bo'lmasligi uchun usta qisqa vaqt ichida zardo'zlik sirlarini puxta egallagan layoqatli shogirdlariga ahyon-ahyonda chetdan ish olishiga mone'lik qilmagan. Gap shundaki, tushgan daromadning kattagina qismi ustaning cho'ntagini qappaytirgan, undan ortgani shogirdga qolgan.

Ta'lim muddatini o'tagan shogird ustozidan oq fotiqa olgan. Shogirdning uyga qaytishi o'zi bir marosim bo'lgan. Uni "arvohi piri miyon bandoy" deb atalib, kasb-qunar homiylarining ruhi qo'llab yursin degan ma'noni anglatgan. Bu marosim shogirdning zimmasiga tushib, zardo'zlik uyushmasi a'zolari ishtirokida uning uyida o'tkazilgan. "Shohi Mardon haqqiga belingga belboq boqladim"-deya fotiha o'qib usta shogirdining beliga belboqg' bog'laydi va shu bilan unga zardo'zlik kasbi bilan mustaqil ish boshlayverishga ijozat beradi. Marosim kunida ustozga bosh-oyoq sarpo, tugun in'om qilingan. Bunday tugunlardan bobo, oqsoqol va poykor ham quruq qoldirilmagan, albatta.

Ba'zi hollarda bechorahol shogirdlarini uzatar chog'ida usta ularga ishni oson boshlashlari uchun kergi (chambarak), qaychi, tayyor gul singari ashyo va buyumlardan berib yuborgan.

Bordi-yu, oq fotiha olgan shogird iqtisodiy jihatdan nochor bo'lib, mustaqil ish boshlashga ko'zi etmasa, ustozinikida qolib ishlashni so'ragan. Bunday holda unga xalfa tarzida ishlash huquqi berilib, har ikkala tomon ana shu shart asosida ish haqini kelishib olgan.

Feodalizm davridagi har qanday hunarmandchilik singari zardo'zlik ham muqaddas sanalgan. Go'yoki, zardo'zlikning kelib chiqishi ham ilohiyona emish: hazrati Yusuf eng birinchi usta zardo'z va eng birinchi ustoz, g'oyibona homiy va pir bo'lgan emish. Bu haqda uncha katta bo'lmagan risola mavjud bo'lib, unda bu kasbning kelib chiqishi, qoidalari, har bir ishni boshlashdan oldin o'qiladigan duolar berilgan. Zardo'zlik kasbining homiysi "arvoqi pir"ga sig'inish uzoq vaqtgacha qoida bo'lib keldi. Ilk bahor kunlarida, xususan "guli surx" ayyomida hamma zardo'zlar Buxoro yaqinidagi Bahovuddin qishlog'iga kelib, pirning haqqiga qo'y so'yib, xudoyi qilganlar.

Usta zardo'zlarning aytishicha, yaqin-yaqingacha "pirzoda"lar bo'lib, ularni "risolachi" deyishgan. Haftada ikki marta, yakshanba va payshanba kunlari risolachi barcha zardo'zlik ustaxonalarini aylanib chiqqan va odamlarni to'plab, risola o'qigan, o'qiganlarini tafsirlab bergan. Odatda, qiroatxonlik dasturxon ustida davom etgan. Qiroatdan keyin risolachi tinglovchilardan tushgan unchamuncha nazr-niyozni belboqiga tukkan-da, fotiha o'qib, navbatdagi ustaxonaga yo'l olgan.

1.3 Zardo'zlik san'atining tarixi

Zardo'zlik - hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi.

Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rangbarang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhup bo'lgan. Vizantiyada zardo'zi kiyim kechaklarni faqat imperator a'yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo'zlik san'ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo'zlik namunalari misol bo'la oladi. Vizantiyadan qadimgi Rusga ham zardo'zlik san'ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo'zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi. Xullas Vizantiya qaerga ta'sirini o'tkazgan bo'lsa o'sha erda zardo'zlik rivojlangan.

Urta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, Urta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947 yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog'ida o'tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I-II asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy "Hindiston safarnomasi" asarida 1442 yili Shoqruх zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o'rtasida turgan elchilarning sovgalari orasida zarbof kiyimlar bo'lganligini aytib o'tgan. 1465 yili

"Ashratxona" maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o'tgan. Hirotida yashab ijod etgan Vasfiy o'zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo'zlik kasbi to'g'risida bayon etgan.

XVII asrda yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX-XX asr boshlarida zardo'zlikning o'ziga xos maktabi yaratilgan. O'zbekistonda Buxoro, Samarqand, Fargona va boshqa joylarda zardo'zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilar, shahar boylari uchun tikilgan. Yuzlab qo'li gul ustalar hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlagan. Bu ustalarning ko'pchiligi otabobosidan meros bo'lgan kasbi saroy ahllari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belboq, salla, quloh va jul tikishdir. Bu kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o'tilgan kiyimlardan hech birini o'ziga buyurtirishga haqi yo'q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovga qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo'zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning an'alaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8-10 yoshdan katta bo'lmagan o'g'il bolalariga sunnat to'yi munosabati bilan zarbof to'n kiydirishgan. XIX-XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi hisoblanadi. 1800-1826

yillarda Xaydarxon podsho zamonasida ishlangan zardo'zi maxsi (1810 yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827-1860 yillarda Amir Nasrulloxondan juda ko'p zarbof kiyimlar saqlanib qolgan. 1895 yildan 1911 yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadxonga mansub juda ko'p zardo'zlik kiyimlar ko'p saqlanib, o'sha davr zardo'zlik san'ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. Urta Osiyoda zardo'zlar boshqa hunarmandchilik kabi maxsus tashkilotga uyushgan edi. Usha vaqtda Buxoroda 350 ga yaqin zardo'z ustalar bo'lgan. Ular ustidan nazorat qilib turadigan maxsus tashkilot bo'lgan. Tsex ustaviga o'xshash risolalari bo'lib, u diniy rasm-rusumlarga hamda urf-odatlariga amal qilishni talab etar edi. Zardo'zlarning ko'pchiligi tevarak atrofdagi guzarlarga yaqin joylarda yashar edilar. Shaqarlarda bozorbop buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalarning katta qismi aynan guzarda joylashgan edi. Maxsus tashkil etilgan tashkilotga amirning saroy ustalaridan tashqari yollanib ishlaydigan xususiy ustalar - xalfalar ham kirar edi.

Buxoroda saroy zardo'zlik ustaxonalari bo'lib ular arkda, podshohlik binolarida, oliy davlat amaldorlarning hovlilarida joylashgan bo'lib, amir xazinasidan ta'minlanib turilgan. 1860-1885 yilda saroyda bitta, 1885-1911 yillarda ikkita ustaxona bo'lgan. Birinchi ustaxona davlatning bosh vaziri-qushbegining podshohlik uyida, ikkinchisi amirning moliya hamda soliq ishlarini yurituvchi zakotchining uyida edi. Qozi Kalon Badriddinning uyida ham zardo'zlik ustaxonasi bor edi. Unga podshoh ruxsat berib, saroy ustaxonalari darajasida huquqqa ega edi. Qozi Badriddinning uy ustaxonasida amirning maxsus ruxsatnomasi bilan har xil sovg'a salom tayyorlanar edi.

1894 yili amir Abdulahadning Karmanaga butunlay ko'chib o'tishi, saroy ustaxonasi faoliyatini to'xtatdi. Saroy buyurtmalarini avval xususiy ustalar tayyorlab berar edilar. Keyinchalik esa Chorboqigul saroyi qoshidagi ustaxonada bajarildi. 1915 yili Olimxon davrida Buxoroda qushbegi Mirzo Urganjiyning uyida podshohlik ustaxonasi tashkil etilgan. Bu ustaxona qushbegi ixtiyorida bo'lgan. Unda ishning ko'pkamligidan qat'iy nazar 20 tadan 40 tagacha ustalar ishlagan. Ustaxonaga ustakor boshchilik qilgan. Ustakor tajribali, malakali tarxkashlardan (ya'ni naqsh chizuvchi usta) qushbegi tomonidan saylangan. Bulardan biri gul tikish san'atida qoravulbegi, Salim ustakorlik lavozimida ishlagan. Keyinchalik Shoiddin va Abdushukur tarxkash bo'lgan. Ular zardo'zlarga ish bergan, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarilishi hamda ishni sifatli chiqishini nazorat qilgan. Ustakor barqut, shoyi, ip va boshqa xomashyolarni tarqatib turgan. Faqat ustakor kalobatunni, ya'ni qimmatbaho zar ipni qushbegi idorasi ichida tayinlangan maxsus mirzo kalobatunchidan olgan. Kalobatun alohida joyda saqlangan. Gul kesuvchi ustalar podshohlik ustaxonasida asosiy kishilardan hisoblanar edi. U gulbur deb nomlangan. Naqqoshlar ichidan (tarxkashlar) chiqqan sarkorcho'badarkash degan chambarak yasovchi ustalar gulburlardan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Matoga chambarak yasash hamda gul tarxini (naqsh nusxasini) tushurish eng mas'uliyatli ish bo'lib bu ishni hamma zardo'zlar ham eplay olmagan, shuning uchun keyinchalik faqat chambarak yoki kergi yasash bilan shug'ullanuvchi ustalar ajratilgan. Saroy ustaxonalarida ish qizg'in bo'lgan. Ustalar azondan shomgacha ishlashgan. Ularga malakalariga ko'ra ish haqqi berilgan. Bayram

kunlari oqsoqol ustalarga pul hamda buyumlar sovg'a qilinar edi. Ustalarga hukumat tomonidan issiq ovqat berilar edi. Ularni maxsus taxtachalarga o'yib yozilgan "xatcho'bi non" va "xatcho'bi go'sht" (go'sht)ga bo'lar edi. Maosh dam olish kuni - payshanbada qushbegi idorasidan mirzo tuzgan hisobkitob bo'yicha berilgan. Ustaxonadagi oziq ovqat bir maosh hisoblangan. Shogirdlar oziq ovqatni yo uylariga olib ketar edilar yoki kambag'allarga sotib yuborar edilar. Tushgan pulni bo'lishib olganlar. Ularga bir tangadan "kori shab" uchun qo'shimcha haq to'langan. Tezkorlik bilan qilinadigan ishlarni ayrim hollarda buyurtmani shartnoma asosida ustalar uylariga olib borib bajarganlar. Agarda saroy ustaxonasida shoshilinch ish bo'lsa yoki zardo'zlar sonini ko'paytirish maqsadida qushbegi mahallasidan oqsoqol nomiga arkda ishlash uchun eng yaxshi ustalardan bir nechitasi talab qilingan, usta va sohibkorlar arkdagi ishga safarbar qilingan.

Podshohning zardo'zlik ustaxonasidan tashqari yana xususiy ustaxonalari ham bo'lib, ularning soni 25 tacha bo'lgan. 1885-1911 yillar Buxoroda zardo'zlik san'ati gullab yashnagan davr bo'lgan.

Turli davrlardagi ustaxonalar tayyorlagan mollari turlicha bo'lgan. Muzaffarxonning xonligida xususiy ustaxonalarga ancha erkinlik berilgan, podshohlik ustaxonalarida nima tikilsa, o'shalarni ham tikishga ruxsat berilgan. Aqadxon davrida saroy a'yonlari hamda katta amaldorlar kiyadigan kiyimlarni tikish man etilgan. Buxorodagi turli muzofot hokimlari har yili amirga an'anaviy tor tug'i to'qson mukofoti bilan sotib olar edilar. "Sharif chilyolak" laqabli usta Masharif gullardan tashkil topgan, to'nga ham, boshqa buyumga ham birday

ishlatsa bo'ladigan naqsh kompozitsiyalarini oldindan tayyorlab qo'ygan. Bir necha oyda tushiriladigan gul birikki kunda tushurilgan. Xususiyl ustaxonalar tez-tez amir saroyi buyurtmalarini bajarar edilar. Ularga ustaga xazinadan bichilgan mato va gul tarxi berilar edi. Qolgan maydachuyda ashyolarni ustaxonani egasi sotib olgan. Buyurtma xarajatlarini qushbegi mahkamaga to'lagan. Podshohlik ustaxonalari bilan baravar miqdorda o'z oilasi uchun naqd pul olish huquqiga ega bo'lgan. Zardo'zlar maydachuyda ta'mirlash ishlarni ham qilganlar. Ular eskirgan do'ppi va ayollar peshanabandi va boshqalarni qaytadan ta'mirlashgan. eskirgan pasha'onabandning zardo'zi guli avaylab kesib olinib ro'molga ko'chirib qo'yilgan. Paydo bo'lgan choklarni yo'qotish maqsadida gullarning chekkasidan qo'shimcha ingichka yo'l tikilgan. Zardo'zi do'ppilarini esa tez-tez tozalab turishga to'g'ri kelgan. Yaxshi ezilgan shirachni yumshoqlab do'ppining kirlangan joyiga obdon aylantirib ishqalanib tozalangan. Usta zar suviga botirilgan yumshoq paxta bilan zar iplarni artgan. Erkaklar choponidan ayollar kuylagi, xaltacha, bolalar to'nchasi, do'ppi, yostiq jilti, sallalardagi kashtalardan ro'mol hamda peshonabandlarga gul tushurishda foydalanishgan. Ustalar bozorga ayrim hollarda olibsotarlariga ham sotganlar. Chala bitgan buyum, ya'ni abrani ham sotishgan. Olib sotarlar abradan kerakligicha olib yoki o'z oilasining kuchi bilan yoki maxsus shu ish bilan shug'ullanuvchi ayollarga berib, ishni nihoyasiga etkazganlar. Olibsotarlar o'zi uchun qulay sharoitda ustalarni kerakli buyumlar bilan ta'minlab turgan, ma'lum miqdorda foydasi bilan mol bergan. Ushbu yo'l bilan olibsotarlar ancha muddatgacha ustalarni o'z izmida saqlashga erishgan.

II BOB.

2.1. Zardo'zlik san'ati turlari, tikish uslublari va ishlatiladigan

xom ashyo va asbob uskunalar

Zardo'zlikni bilish uchun asosan uch hunarni yaxshi bilish kerak, birinchisi - rasm solish va naqsh chizishni, ikkinchisi - gul kesishni, ya'ni gulbur bo'lishni, uchinchisi - kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak. Agar zardo'zlar bularni birortasini bilmasa uchalasidan bittasiga muhtoj bo'lishi kerak bo'ladi. Shuning uchun uchala kasbni chuqur o'rganishga to'g'ri keladi.

Zar 4 qavat qilib patilaga, ya'ni zar o'raydigan cho'pga o'raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi. "Patila" degani oddiy yoqochdan yasalgan bo'lib, chorrax va nafis qilib tarashlagan ichi kovlab qo'rqoshin quyilgan bo'ladi. Gullarni kesish uchun "gulbur" ishlatiladi. Axta va xoka yordamida kartonga naqsh tushuriladi. Keyin esa maxsus qaychi yordamida gul kesib olinadi. Qadimgi zamonda karton bo'lmagani uchun qo'y terisi" "mesh" dan qilingan gullarni kesib tayyorlaganlar. XIX asrning o'rtalarigacha zardo'zlik gullari charmdan kesilgan oq charmni tillo zar bilan tikish uchun sariq rang bilan bo'yaganlar yoki oq zar bilan tikishga esa shundayligicha ishlatilgan. Charm yumshoq bo'lganidan zar tekis chiqmagan, uning ustiga surp yoki doka yopib, temir bilan urib tekislangan. Bu usul XIX asr o'rtalariga qadar davom etgan. Rossiya shaharlariga olib borib sotiladigan tovarlar ichida zarbof karton qog'ozlarga o'roqlik holda olib borilgan. Keyinchalik kartondan foydalanganlar. Buxoroliklar bu kartonni "qog'oz latta"

deb yuritadilar. Qoqoz latta hozirgi kartonga qaraganda egiluvchan va sinmasdi. Hozir sinadigan kartondan foydalaniladi. Kartonni yuziga sariq bo'z yopishtirishgan, bu holatda karton sinmaydi va bir tekisda chiqadi. Usha davrda kartonni zardo'zlikda ishlatilishi katta ixtiro hisoblangan. Kartondan gul kesish tez va oson, ikkinchidan zar bilan tikish qulay va sifatli bo'lgan.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo'lgan. O'rama zar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. G'oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilgan. U yoki bu navni ajratish zaruriyati tug'ilib qolsa zar ipga tilla kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (oq) deb ataladi. Kalyobatun ingichka metal ip bo'lib, shoyi ipga puxta o'ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasini oz emas, ko'p emas 84 foizgacha bo'lgan sifati ishlatilgan. Birishmi tillo chor tor - u to'rt yo'lli zar ip va eng yaxshi sifatli ipak ip. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikiladi. XIX asrning 90-yillari boshida 40-raspoli pechak g'altak ip paydo bo'lgan bo'lib, zardo'zlikda keng ishlatiladigan xom ashyo:

1. Korcho'b;
2. Patila;
3. Qaychi;
4. Angishvona.


"Tilla " kalyobatun qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. Kolyobatun bilan sim Buxoro zardo'zligining asosiy xom-ashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kolyobatun XIX asrning boshida shu paytgacha bo'lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi.

Zardo'zlikda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi. Zardo'zlikda yana po'lakcha, olmos qubbalar, zarhal to'g'alar va boshqalar ishlatiladi. Po'lakcha-zardo'zlikda ishlatiladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo'ladi.

Buyumga bezash uchun qadaladigan, o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha. Olmos qubbalar-turli nav oltindan zardo'zlaming o'zlari yasagan zargarlik taqinchoqlariga o'xshab ketuvchi bo'rtma naqshlar, dur, hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlatiladi.

Zarhal to'g'alar-mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo'ladi. Zardo'zlikda o'ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalarini chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o'chirg'ichlar, shaffof, karton qog'ozlar kerak bo'ladi. Zardo'zlik qurollari unchalik ko'p emas.

Chambarak, ya'ni korcho'p, uning to'n, nimcha va mayda-chuyda buyumlar uchun mo'ljallangan uch turi ma'lum. Tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib, hajmlarini katta-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi.



Chambarak ya'ni korcho'p

Korcho'b uzunligi 320 santimetrgacha bo'lgan ikki teng yonli silliq yog'och dastadan iborat bo'lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin. Chambarakka bo'zdan qilingan kerish (tavar) tortilib, u tikib tayyor bo'lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi.

Zardo'zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila qattiq yog'ochdan, uzunligi 20 santimetr bo'lgan, to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan bo'ladi. Unga to'rt qavat qilib zar ip o'raladi. Bunday patilalar ipni zich qilib o'rashni ta'minlagan. Zardo'zlikda angishvona ham ishlatiladi. Ang-forscha, angusht, ya'ni barmoq, vona, bona saqllovchi degan ma'noni bildiradi. Qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g'ilof angishvonananing ustki va yoni ignani keti qadaladigan ya'ni igna toyib ketmasligi uchun chuqurlardan iborat bo'ladi. Zardo'zlik ishida ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Biri fabrika angishvona bo'lib, uni o'rta barmog'iga, ikkinchisi tagsiz, qalin

charmdan yasilib, chap qo'lining uchta barmog'iga taqilib islanadi. Angishvonani fabrikada metall dan ishlangani ham bo'ladi.

Zardo'zlikda ikki xil qaychi bo'ladi. Qaychi ushtur gardan, ya'ni "Tuya bo'yin qaychi" degan ma'noni beradi. Tuya bo'yniga o'xshash qaychi bo'lib, gul qirqishda ishlatiladi. Oddiy uy ro'zg'orda ishlatiladigan metall qaychilar ham ishlatiladi. Ignalarning fabrikasidan chiqqan, o'rtacha kattalikdagilari ishlatiladi.



Zardo'zlikda ishlatiladigan qaychilar.

Zardo'zlikda 70 xil klassik tikish usullari mavjud. Bu usullar o'ziga xos tomonlarining nomlari bilan bir – biridan farq qiladi. N. Aminov o'zining “Biz zardo'zlarmiz” risolasida zardo'zlik sirlari, zar tikish xillari va usullari to'g'risida batafsil to'xtab o'tgan. Birinchisi – zamindo'zi, ikkinchisi – guldo'zi.

“Zamindo’zi” - bunda zar tikilayotgan kiyim yoki kiyim gul naqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi. Zardo’zi siddi ustiga tikilib, siddi jaydari ipakdan tayyorlanadi. Birinchi navbatda ip 4 yoki 5 qavat qilib, keyin esa ikki qavat qilib eshiladi. Shu hosil bo’lgan ingichga ijurni zardo’zlikda siddi deb yuritiladi. Zardo’zlikda tikish joyining yuzasi katta yoki kichikligiga qarab, o’lchamga moslab stanokda siddilar sariq bo’z ustiga sakkiz, yigirma, yigirma to’rt qator qilib tortiladiyu siddilar aniq hisob bilan tikilib, ular sanab tikiladi, hamda ularning soni mo’ljaldagidan ortiq bo’lmasligi kerak. Aks holda, mavj yoki nusxalar buziladi. Zamindo’zidan mavji ikro’l va mavji ro’l qismlari bor. Zamindo’zi qadimdan qimmatbaho to’nlarda ishlatilgan bo’lib hozir zardo’zi do’ppilarning ziyagidagina qo’llanib qilinadi.

“Guldo’zi” – bunda tikilayotgan naqshning tagi ochiq qolib faqat gul naqshlarining o’zi zar bilan tikiladi. Guldo’zi tikish usuli o’ziga xos bo’lib, bu quyidagi bosqichda bajariladi. Naqqosh tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi qalin qog’oz, karton yoki teridan qirqib andozasi tayyorlanadi. Sig’irga baxmal matoga qarab chiqiladi, ya’ni omonat tikib chiqiladi yoki yelimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo’rtma naqsh gul hosil bo’ladi. Endi zardo’zlikda zar tikish xillari hamda usullari to’g’risida to’xtalib o’tamiz. Biz aytib o’tiladigan tikish xillarining ko’pchiligi zardo’zlikda qo’llanilayapti. Ayrimlari deyarli qo’llanilmaydi. Bu tikish xillari ham qo’llanilsada lekin uning ishlatilish sohasini topsa bo’ladi. Bu usullarning yo’q bo’lib unutilib ketayotgani kishini achintiradi. Qadimdan qo’llanilib

qilingan tikish usullaridan yosh avlod foydalansa, xalq yaratgan an'anaviy, nodir uslublarini asrab qolgan bo'lur edik.

“Yak ra mavj, yak ra chashmi bulbul” – bu tikish usulida mavji yak ro'l bilan tikish chashmi bulbul qo'shib tikilib, bir yo'li mavj bir yo'li chashmi bulbul hosil qilgani uchun uni shu nom bilan qilingani uchun yuritiladi. Bu usul zardo'zlarni shu san'atga ijodiy yondashi tufayli yuzaga kelgan.

“Chashmi bulbul” – bulbulning ko'zi degani. U shaxmat xonalariga o'xshab ketib to'rtburchak naqshlar ajoyib mavjlanib turadi. Naqshlar siddi bilan sanab tikiladi. Xuddi boshqa zamindo'zidagidek tikiladi. Tovus, xurshid kabi qadimgi buxorocho do'ppilar gir aylanasing tepa qismiga “obiponcha” ishlatilgan. U kartondan kesib, zamindo'zi ustiga to'rt qavat kumush zar bilan tikib chiqiladi.

“Mavji du ro'ya” – ikki tomonlama mavj, zamindo'zining qismlaridan biri bo'lib o'ziga xos tikiladi. Chunonchi siddi shaboda daryoning mavj urib turganligini eslatadi. Shuning uchun mavj du ro'ya ataladi. Obi lo'la deb ataladigan ip ishlatiladi. U zardo'zlikda ip siddilardan yo'g'onroq bo'lib, jaydari ipdan 20 – 25 qavat qilib qattiq eshiladi. Chigora misol siddilarning har ikki chetiga tortiladi. Obi lo'la zamindo'zining chetlari chiroyli chiqishi uchun ishlatilib, zamindo'zi uning kichikligiga qarab siddilar soni ko'paytiriladi. Lekin obi lo'la ikki qatorligiga qolaveradi.

“Mavji yak ro'ya” – bir tomonlama mavj zamindo'zligining qismlaridan biri bo'lib, u daryo mavjiga o'xshash bo'ladi. Shuning uchun mavj yak ro'l deb ataladi.

“Sochmado’zi” – ikki qavat zar va bir qavat mayin ipak bilan birga qo’shib eshiladi, hamda lola, sebarga barcha gullar , shakarak kabilar tikiladi.

Zardo’zlikda mahalliy joydori va chetdan keltirilgan materiallar ishlatiladi. Erkaklar choponini baxmal bershim degan barkutlarning a’lo navi hisoblanib to’nlari uchun faqat shu barqutdan foydalanilgan. Rus barquti, ya’ni baxmal farangi ham keng iste’mol qilingan. Bu barqut Rossiya orqali G’arbiy Yevropadan keltirilgani uchun baxmali zaroniy deb yuritilgani uchun ruscha zagranichniy so’zidan olingan bu barkutarning yo’l – yo’l, katak – katak sidirg’a, bosma gulli navlari bo’lgan. Odamlar sho’x gulli barkutlarni ko’proq xarid qilganlar. Ayniqsa, binafsha, yashil va ko’k rangli barkutlar odamlarga yoqqan. Binafsha va qizil rangdagi barkutlar bolalar va ayollar kiyimi uchun juda mos bo’lgan. Silliqlik yarim ipak barkut, ya’ni baxmali mum chopondan tashqari barcha buyumlar uchun keng qo’llanilgan. Bundan tashqari Buxoro baxmali joydori baxmal bo’lib, u ko’p ishlatilgan. Uning to’q yashil hamda to’q qizillari jul poyafzal tikishdan tashqari surp, movut , shoyi atlas, doka joydori, olacha hamda teridan foydalanilgan. Atlas buyumlarga zardan chidamsiz va sitilib ketgan. Atlas zarga gullari tikilgan. Gulli hamda sidirg’a atlasdan belbog’lar va ro’mollar tikilgan.

XVII asr boshlarigacha Rossiyaga sharqdan zar simlar keltirilgan. O’sha davrda Moskvaga podsho saroyida nemis ustalari yordamida zar va kumush simlar Buxoro bozorlarida sotilar edi. O’sha vaqtda kalyobatun degan zar tola mashhur ip o’rniga qo’llaniladi. Tilla kallabutini tayyorlashda sim ipga tilla suvi

yurgizilgan. Kalabutinda 84 % li kumush qotishmasi qo'llanilgan. Uning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi har xil bo'lgan.

XIX asrning 30 – 70 yillarida tikishgan buyumlarda kalabutunning asosi tovlanuvchan sariq tilla rang ip, 80 yillarda to'q sariq ip bilan, 90 yillarda esa to'q sariq tus shoyi ip bilan tilla rang ip qo'shib tikiladigan bo'lgan. 1900 yillardan so'ng alvon tusli ishni to'q jigarrang, och jigarrang iplar bilan qo'shib ishlatilgan.

XX asrning 10 yillarida yana to'q sariq tusdagi iplar ishlatila boshlandi. Bu ip bilan erkak, ayollarning bosh kiyimlari tikilgan. Kalabutun bilan sim buxorolik zardo'zlar uchun asosiy xom ashyo hisoblangan. Berishimli tillajoyi chor – tor – u to'rt yo'lli zar ip va eng yaxshi sifatli ipak ip. Bu har bir ipakni ikkiga bo'lib, ikkita qilib eshilgan. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikishi uchun ishlatilgan.

“Responi pechak”- 40 – 70 g'altak ip XIX asrning 90 yilalri boshida paydo bo'lgan bo'lib, zardo'zlikda keng ishlatiladigan xom ashyo. Uning rang tovlanishi xuddi ipakdagi singari bo'lib, faqat unga qizil hamda to'q qizil ranglar ham qo'shilgan. Mana shu g'altak ip keyinchalik o'ta qimmatbaho zardo'zlik buyumlarida ishlatilgan.

Zardo'zlikda yana pulakcha , olmos qubbalar, zarhal toshlar va boshqalar ishlatiladi.

“Pulakcha” – zardo'zlikda ishlatiladigan kichkina tangacha . Mayda oq, sariq, qizil va boshqa ranglarda bo'ladi. Buyumga qadash uchun o'rtasidan teshikcha qilingan metal pistoncha.

“Olmos qubbalar” – zardo’zlikda ishlatiladigan turli nav oltindan zardo’zlarning o’zlari yasagan zargarlik taqinchoqlarga o’xshab ketuvchi bo’rtma naqshlar hamda qimmatbaho toshlar.

“Zarhal po’g’alar” – mahalliy zargarlar ishlagan, odamda qora va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo’ladi.

Har bir kasbga o’ziga xos asbob uskunalar bo’ladi. Zardo’zlikda asbob – uskunalar uncha ko’p bo’lmasada o’ziga xos tomonlariga va tuzilishiga ega. Ularni bir – bir xarakterlab chihamiz:

“Korcho’p” – chambaark, ya’ni korcho’pning tun va mayda – chuyda buyumlar uchun mo’ljallangan uch turi mavjud. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo’lib, faqat hajmlarining katta kichikligi bilangina bir – biridan farq qiladi. Korcho’p uzunligi 80 – 320 smgacha bo’lgan ikki teng yonli silliq yog’och dastadan iboratdir.

Korcho’pning uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin bo’ladi. Chambarakka bo’zdan qilingan kerish, ya’ni ta’var tortilib, u tikib tayyor bo’lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Korcho’pda chordona qurgan holda yerda o’tirib ishlanadi.

“Patila” – ipni dumaloqlash (o’rash) uchun qattiq yog’ochdan qilingan, uzunligi 20 smdan bo’lgan. To’rt qirrali patiladan foydalaniladi. Ichiga qo’rg’oshin solib vazminlashtirilgan bunday patilalar ipni zich qilib o’rashni ta’minlaydi.

“Angishvona” – ish tikishda barmoq uchiga kiydiriladigan metal asbob. Angishvona qadimda charmdan ham qilingan. Uning usti yoki ignani keti qadaladigan joyi chuqurchalardan iborat bo’ladi. Zardo’zlikda ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Birinchisi fabrika angishvonasi, uni qo’lning o’rta barmog’iga , ikkinchisi esa tagsiz, qalin charmdan yasaladi va u chap qo’lning o’rta barmog’iga taqib ishlanadi.

“Qaychi ushturgardan” – zardo’zlikda gul qirqishda ishlatiladigan “tuya bo’yin” qaychi.

“Igna” – tikuv quroli bo’lib, har xil hajm (uzun – kalta , ingichka – yo’g’on) da po’lat simdan suyri, o’tkir uchli , teshikli qilib yasalgan.

2.2. Zardo'zlikda naqshlarning qo'llanilishi va kompozitsion yechimi

Zardo'zlik san'atida qo'llaniladigan naqshlarning mutlaq ko'pchiligi islamiy bo'lib geometrik va shunga o'xshagan naqshlar undan keyingi o'rinda turadi. Islamiy naqshlar turli tuman dastagullar, yaproqlar, butoqlar, daraxtlar, shoxlar, guli guljonlardan iboratdir. Meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda biz marvarid, turunj, anor, olcha, uzumlarni ko'ramiz. Odam va xayvonot tasvirini inqilobdan oldingi Buxoro zardo'zligida sira uchratmaymiz. Bunday naqshlar fakat inqilobdan so'nggi davrlarda, u xam bo'lsa ayollarning uy ichida kiyadigan buyumlarda, xususan do'ppilarda paydo bo'ladi, masalan bunday do'ppilarning tepa qismida tovus, ba'zilarining girdida qator qilib o'rdaknoma qushlar tasviri tushurilgan. Bunday buyumlar fakat maxsus buyurtma asosidagina tikilib bozorda sotuvga chiqarilmaganini zardo'zlarning o'zlari qayd ettilar.

Buxoro zardo'zligida o'ziga xos va puxta ishlangan atamalar bulib, ular zardo'zlik sharoitining ayrim bosqichlarini bu san'atning uzok davrli taraqqiyot jarayonidan xam darak berib turadi. Gullar turidagi naqshlar uchun gul atamasi barglar turidagi naqshlar uchun barg atamasi nom bulib qolgan. Bir qancha naqshlar guruxi uchun umumlashtiruvchi bo'lib xizmat qiladigan bunday atamalardan tashkari gul turidagilarga aloxida, barg turidagilarga aloxida mansub bo'lgan, aynan shularning o'zi uchun xos xisoblangan Yana bir kancha nomlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, guli chorbarg - turt

yaprokli gul, guli shishbarg - olti yaprokli gul, gul xasht barg- sakiz yaprokli gul, lolagul va xokazalar deb atalgan.

Barg turidagi nakshlar kuyidagilarga bo'lingan: dona-dona yaproklar - yakkabarg, juyat-juft yaprok - dubarg, uchtalik yaproklar - se barg, majnuntol yaprogi - bargi majnunbed va xokazalar.

Zamonaviy ustalar, ularni xoxlagan maqomda talqin qila boshlaganlar. Masalan, to'rt yaprokli gul naqshi xudi ana shunday o'zgarishni boshdan kechirib kungirador peshtokni eslatuvchi chor madoxil (to'rt darvoza) deb atala boshlandi. Agar bita yaprokli gul naqshi ikkinchisiga ustma-ust ko'ndirilgan bo'lsa, uni chor madoxili durun ba berun deyilgan (madoxil arabcha - kirish degani). Bunday gullar ko'pincha mayda islmiy naqshlar bilan tikilib eng uchida xar ikki tomonga qaragan ikki dona yaproq tasviri bulgan. Islmiy naqshlar uz navbatida boshka tur naqshlarga ta'sir qilgan deb taxmin qilish mumkin, masalan yaproklari nur yunalishida joylashgan ko'p bargli gul naqshidan nishon deb ataluvchi tamqa belgisi bilan qo'shib yuboriladi. Bu naqshlar XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida zardo'zlikka kirib kelgan deb aytish mumkin.

Kelib chikishi turlicha bo'lgan gul turlaridagi bunday o'zaro bogliqlik islmiy naqsh va ularning atamalaridagi o'ziga xos xususiyatlarining yo'kolib ketishiga sababchi bulgan. O'rta Osiyo chorvador qabilalari milliy naqshlarida keng tarqalgan qo'chkor shoxi - tagalak, aftidan bir qancha o'troq dexqon xalqlar san'atidagi islmiy naqshlarga kuchli tarkalgan. Natijada

novdalardan biri yangi nom bilan birga o'ziga xos uslublashuvga ega bo'ldi, ba'zi xollarda u xaqiqatdan xam qo'chkor shaklini eslatadi.

Bunga misol tariqasida ancha aniq qilib tikilgan islimiy naqshli XVIII asr etiklarini keltirish mumkin. Tagalak yo'lidagi naqshlarni ham shunda yaqqol ko'ramiz. Gullarning qirchoqlarini aylantirib tikilgan ipda zardo'z birato'la tagzaminni ham tagalak nusxa kashta bilan to'ldirib chiqqan.

Chinnigul (xrizantema) va qashqargul singari kashtalar nomi qanday kelib chiqqanligi haqida aniq muloqazalar mavjud. Bunga, aftidan, xitoy chinnisidagi rasmlar asos bo'lgan bo'lsa, eqtimol. Xitoy chinnilari O'rta Osiyoga ham keltirilar va qoyat qadrlanar edi. qatto XIX - XX asrlarda Buxoroning shaqar boylari uyida ular keng rasm bo'lgan edi. Kalak (ayollar poyafzalining tovoniga taqiladigan naqal) guli ham xitoy chinnilaridagi naqshlardan olingan deb taxmin qilinadi. Mazkur gul xitoy chinnisida keng qo'llanilgan. Biz ularni IX-X asr sopolchiligida (keramikasida), VIII asr Rey sopolchiligi deb atalgan eron sopolchiligida ham uchratamiz.

XIX asrning so'nggi o'ttiz yilida zardo'zlik gullarining nusxasi O'rta Osiyoga ko'plab olib kelingan rus fabrika gazmollaridan olingan. SHarq xalqlariga mo'ljallab to'qilgan gazmollar o'zlarining chiroyli ko'rinishi, bo'yoqlarining yorqinligi va puxtaligi bilan ajralib turgan. Ular tezda xaridorgir bo'lib ketgan va Afqoniston orqali keltiriladigan qind gazmollari bilan bemalol bas boylashar edi. Gazmollardagi yirik-yirik gullar zardo'zlikka ham ko'chib o'tgan va ularni nomlaridan bilib olsa bo'lardi. Guli qal'agiy (qal'a so'zidan) nomi zardo'zlarga yaxshi tanish bo'lib, uning nusxasi

Orenburgdan keltiriladigan rus gazmollaridagi guldari olingan. Buxoro savdogarlari chegarachi posbonlar bilan qo'riqlanadigan bu shaharga mol olgani borar edilar.

Rang-barang naqshli, sirkor me'moriy yodgorliklar, ulardagi turli-tuman geometrik naqshlar zardo'zlik gullari va kashtalarini ijodiy jihatdan boyitishdagi boy materiallar bo'lib xizmat qiladi. Shu siraga kiruvchi mehrob naqshi odatda uchli ark ko'rinishga ega, kitoba naqshi yuzasiga chiroyli qilib arabcha yozuv bitilgan qagor cho'zinchoq halqachalar bo'lib, ular turar-joy binolarining, masjid va madrasalarning devor bilan shifti tutashgan erida joylashgan bo'ladi. Qadimgi Buxoro me'morchilik yodgorliklari ham koshin degan gulning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan va qokazo.

Zardo'zlik kashtalarini chizuvchi gulbur ustalar boshqa namunalarga ko'r-ko'rona taqlid qilmay, atroflicha o'ylab ko'rganlar, o'z kasb-hunarlarining an'analari va spetsifik xususiyatlari asosida ijodiy qayta ishlaganlar.

Kashta naqshlarining tuzilishiga qarab, zardo'z ustalar buyumlarni ayrim-ayrim guruqlarga bo'ladilar. Bezak gullarining joylanish tartibiga ko'ra choponlar bir necha turlarga bo'linadi. Darham (to'qima) turidagi choponlar butun yuzaning bir sidra gul naqshlari bilan to'ldirganligi orqali ajralib turadi. Bunda turli katta-kichiklikdagi rombalar, kvadratlar, to'qriburchaklar va hokazolar yo'l-yo'l shaklda qator tizilib, zich islmiy naqshlar bilan to'ldirib chiqilgan. To'rt yaproqli qubba - madoxil (madoxili durun-badurun), uch yaproqli qubba - se barg, uch-to'rt yaproqchali buta va butachalari-barg yoki

bargi shalluki, majnunbed (majnuntol), ayrim-ayrim joylashgan olti va sakkiz yaproqli gullar, aksariyat lola ana shu naqshlar sirasiga kiradi. Ko'pincha gul va yaproq naqshlari doyra markazidagi gul yoki yulduz atrofida aylana (yoki salib) shaklida joylashib, geometrik shakllar tagzaminini to'ldirib turgan. Bu tur naqshlardan yaka biri darhami daraxt kompozitsiyasi bo'lib, unda ham kashtalar bir tekis tushgan, faqat oldingilaridan serjiloligi bilangina ajralib turadi. Gul tushiriladigan joy parchalanmay, bachkanalashmay, qoyat erkin tarzda yirik bir yagona manzaraga biriktiriladi. Daraxt islimiy guli g'oyat uzun tanadan iborat bo'lib, unga gul va yaproqlar chatilgan, goho bo'lak-bo'lak shoxlardan tana hosil etilgan, goho esa har tomonga osilib turgan katta-katta sallagul (piongul)lardan tuzilgan (bu, fabrika gazmolidan olingan bo'lsa kerak) chetlari qirqma keng yaproqlar juda ham o'ziga o'xshatib ishlangan. Gullar qo'lda shunday erkin va engil chizilganki, hech qanday rasmdan ko'chirib olinmagan va boshqa gulning takrori bo'lib qolmagan. Libos bezashning bu turi ancha boy va dabdabador bo'lgan. Amirning qimmatbaho, to'ytantanalarda kiyadigan kiyimlari shu bezaklarda tikilgan. Bunday choponlarni tikish gulburdan katta ijodiy xayolot va tajriba talab qilgan, qattiq meqnat orqasida yuzaga chiqadigan bunday ishlar uchun ham ozmuncha qarakat qilinmagan. Tayyor rasmga tikish bo'yicha o'rtacha murakkablikdagi to'nlarni tayyorlash uchun to'rt kishi bir oy ishlasa, darxam xilidagi choponlar uchun o'n ikki odam uch oy mobaynida behad ko'p qimmatbaho ashyolar hisobiga ishlagan. Shunday to'nni tayyor qilish haqidagi hujjatda hammasi bo'lib 3233 tanga pul sarf etilgani qayd etilgan.

Zamindo'ziy va guldo'ziy tarzida bajarilgan darham kompozitsiyasi chopon, poyafzal va jullardan boshqa zardo'zlikka oid hech bir buyumda qo'llanilmaydi. Bu xildagi san'at namunalari bizgacha g'oyat oz miqdorda etib kelgan. Yuza bo'ylab bir tekisda har tomonga yoyilib turgan bir dasta gul aks ettirilgan choponlarni butador deb atalgan. Gulning o'zini esa buta deyilib, unda gulning poyasi va yaproqlari, majnuntol novdalari, xurmo shoxlari, turli kattakichilikdagi guruhlar, qo'sh, bodom va hokazolar ifodalangan bo'lishi mumkin.

Bu tur kompozitsiyaga yana butadori tavqnok deb atalgan to'n ham kiradi. Bunday to'nlarning butun yuzasi buta naqshi bilan to'ldirilib, faqat elkasida - tavq (arabcha halqa) deb atalgan chiroyli gardishli turunji bo'lgan. Butadori chilyolak yoki jomi chilyolak deb atalgan to'nlari ham shular sirasidandir. Ularning tikiladigan butun yuzasi bir tekisda chilyolak degan halqachalar bilan to'ldirilgani uchun shunday nom bilan ataladi. Butadori daraxt kompozitsiyasi ham butador tipidagi guruhga mansub bo'lib, aslida darhami daraxtning variantlaridan biri hisoblanadi. Darhami daraxtdan uning birgina farqi shundaki, bunda ma'lum bir oraliqda tik joylashgan daraxt tanasi to'xtovsiz takrorlanaveradi. Buta tikiladigan yuza bo'ylab to'g'ri-to'g'ri qatorlarga aksar holda shaxmat ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Butador kompozitsiyasi ayollar libosida g'oyat noyob usul hisoblanib, u ko'proq katta yoshdagi erkaklar va bolalar buyumida qo'llanilgan. Bu kompozitsiyaning butadori tavqnok, butadori chilyolak va butadori daraxt deb atalgan turlari

nisbatan kam, shunda ham katta yoshdagi erkaklar va bolalar liboslarida qo'llanilib, ayollar libosida mutlaqo qo'llanilmagan.

Davqur (davri qur - hoshiyalangan so'zining buzib aytilishi) deb nomlangan to'nlar g'oyat keng ko'lamda qo'llanilgan. Bunday to'nlarning eng uchlari, barlari va quyi qismlari qur hoshiyasi bilan aylantirib tikilgan, to'n elkasiga esa turunj naqshi tushirilgan.

Tavq turunji naqshlarining turli-tumanligi va talqini bilan ajralib turadi, ular ham ko'rinishlari, ham katta-kichikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning o'lchamlari diametrda 36X45 dan 48X56 santimetr orasida hisob qilinadi. Tavq turunjlarning tuzilishi sistemasi bo'yicha ularni ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi tur turunjlarga halqa ichida tuzilgan kompozitsiyalar kiradi. Eng keng rasm bo'lgan bu kompozitsiya yo umumiy markazga ega halqanamo kashtagullar bilan yoki oralari islamiy naqshlarga to'la oltiburchak qatlamlari bilan to'ldirib chiqilgan. Ba'zan bu oraliqlar trapetsiyanamo qator yo'llarga ajratilib, butalar naqshi bilan bezab chiqilgan. Doyra ichiga ko'pincha olti yoki sakkiz qirrali yulduz (sakkiz qirrali yulduz ikki kvadratni bir-biriga mindirib yasalgan) shakli tushirilgan bo'lib, markaziy qismida bo'rtma giriqli qalqa aks ettirilgan. Naqshlarning qar bir qismi mayda gul, yaproq, butoq va xurmo barglari shaklida tikilgan. Yulduzli halqaning pastki qismida kashta bilan tikilgan yarimoy kuxasi deyarli qar ikki buyumdan bittasida uchrab turadi.

Ikkinchi kategoriyadagi turunjlarning kashta gullari ba'zan jimjimador saliblar, sernaqsh yo'llardan to'qima usulida yasalgan sakkiz

qirrali yulduzlar, galma-galdan almashinib keluvchi gulli giriqliq va butoqchalar kompozitsiyasi, guldun shakli ichiga joylashtirilgan, erga qaragan yarimoy halqasiga kiydirilgan murakkab islamiy kompozitsiyalardan iboratdir.

O'rtasida doira shakli bor turunjlarining gardishi sirt tomonidan kunguralar bilan aylantirib chiqilgan. Kunguralar gardish qirrasi bo'ylab, yakkabarg deb ataluvchi bir qator qilib tizilgan yakka-yakka yaproqchalardan yoki bitta yaproq va bitta bodamcha shaklidan (goqida na'lak, ya'ni taqa shaklidan) tuzilgan. Ba'zan yakka-yakka yoki turkum-turkum qolda keluvchi o'sha yaproqchalar ishtirokida ham turunjlar gardishini kungurador qilib aylantirib tikilgan. Gulchambar yoki o'rilgan yaproqlar ko'rinishidagi murakkab islamiy naqshlardan ham kungura yasalgan.

Juda kamdan-kam hollarda istisno qilmasa, aytarli hamma turunjlarining markaziy tik o'qi bo'ylab qo'shimcha bezak elementlari albatta, uchrab turadi. Yuqorida xurmo yaproqi, odatda g'oyat jo'n shakldagi 3-5 ta yaproq yoki elpig'ich ko'rinishidagi mayda uzum zanglari joylashgan. Turunjni bezab turgan elementlarning qanday gul shakli bo'lishidan qat'iy nazar toji gul nomi bilan ataladi, unga teskari tartibda joylashgan quyidagi naqshli bezak ka'bi gul (guldun) deb atalib, madoxil turidagi naqshlardan birining uslublashtirilgan ifodasidan iborat bo'ladi.

Halqa ichiga olinmagan kompozitsiyali turunjlarining toji guli qajm jihatidan yirik bo'lib, gohida gul, xurmo naqshi bilan, ka'bi gul esa baland guldun bilan boyitilgan.

Turunjlardagi bu detallar tavq uslubiga oid naqshlar islamiy xarakterdagi naqshlarga asoslanganligini ko'rsatadi. Asta-sekin o'zgara borgan tavq naqshlari ko'pgina hollarda o'zining dastlabki islamiy shaklini yo'qotib, uning o'rnini geometrik shakl egallaydi. Islamiy talqinlarning o'ziga xos belgilari bo'lmish guldok va gulchambar endilikda yot unsurlargina bo'lib qoladi.

Davqur turidagi to'nlarning hoshiyasi (jiyagi) ham kashtalarining rang-barangligi bilan ajralib turadi: oddiygina islamiy butoqidan tortib eni 23-25 santimetrli murakkab va dabdabali islamiy kashtalarni ko'rishimiz mumkin. Oddiy jiyaklar oba deb atalgan ensiz yo'l bilan aylantiriladi. Qimmatbaho zardo'zlik buyumlarida jiyakning ichki tomonidan ham qo'shimcha kungura bilan aylantirib chiqilgan. Jiyakning ichki tomonidan obasi bo'lmay, faqat tashqi tomondangina obalansa, bunday jiyak oldi ochiq jiyak - ko'ripesh yala deb ataladi. Kashtasi boy va serbezak jiyaklar o'tgan asrning 80-yillaridagi to'nlarda uchraydi. Jiyakning kashtasi turunjning naqshlariga mos bo'lishi talab qilinsa-da, amalda ko'pincha bunga rioya qilinmagan. Katta yoshdagi erkaklar, bolalar to'nlari, mursaklar, kamzullarni bezashda asosan davqur kompozitsiyasidan foydalanilgan.

Kulucha mursagi zardo'zlik bezaklarining tuzilishi jihatidan ikki guruhga bo'lingan: butadori chilyolak va davqur. Butadori chilyolak xilidagi mursaklarning faqat beligacha oldi va orqasidan kashtalar bilan bezatilgan. To'ndan farqli o'larok. davqur mursaklarining turunji ham elkadan, ham ko'krakdan tikilgan. Bunday mursaklarning chai barida, quyiroqda,

ko'ndalang bo'lib gul yoki butoq shaklida kashtasi bo'lgan. Mursaklar keng zarduzi cholvorlar (poyjomalar) bilan kiyilgan. Ularga lampasga o'xshash kashtalar tikilgan, bu kashtalar ikki yon tomondagi yirmochlar bilan poyjomaning pochasini hamrab olgan. Old tomonning quyi qismida butoq, gul yoki turunj joylashgan. Mursakning belidan olmos bezakli feruza qadamali, ba'zan qimmatbaho toshlar, sirlar bilan bezatilgan vazmin to'qali belbog' taqilgan. Amir va uning amaldorlari bunday liboslarni shahardan tashqariga chiqqan kezlarda va turli tantanali marosimlarda zardo'ziy o'kchali etik va oppoq zardo'ziy salla bilan kiyganlar. Harbiy amaldorlar esa bunday libosni salla o'rniga chetlariga mo'yna solib tikilgan zardo'ziy telpak bilan kiyganlar.

Otlarning davriy usulida tikilgan jullari, xuddi to'nlar singari, amir saroy a'yonlarining tantanali kunlarda tutadigan buyumlari sirasiga kiradi. Ular ikki toifaga bo'linadi: xosagiy - amirning o'zi foydalanishiga mo'ljallangan va in'omiy - tortiq xilidagi boshqa zaruriy ashyolar qatorida o'rin olgan. Birinchi toifadagi jullar qoyat boy naqshlangan, ko'pincha zargarlar tomonidan kumush va tillakori to'qalar qadab bezatilgan, popuklari kumushband bilan o'ralgan. Bunday jullar zinpo'sh degan shohona egar yopkisi bilan birga qo'llanilib, yo'lda amir egardan tushgan choqlarda u egar ustiga tashlab qo'yilgan. Zinpo'sh ham davriy bilan bir xil barqutdan va bir xil tarzda ishlangan.

Ikkinchi toifa jullar ko'p miqdorda bozorda sotishga mo'ljallab yasalgan. Ular o'zlarining oddiy tikilishlari va gullari bilan farqlangan.

Jul ikki qismdan iborat: egar qoshiga kiygiziladigan to'g'ri burchakli kesmasi bor old- xoni zingoq qismi, hamda ot saqrisini berkitib turadigan ort - chakkikoshi-zin qismi. Julning, tabiiyki, ko'proq ochiq, ko'zga ko'rinib turadigan qismlarida kashtalar mo'lroq bo'lgan. Suvoriy berkitib turadigan old qismining bezaklari xiyla oddiy bo'lib, o'rta qismda chiroyli, bejirim qaviqdan boshqa hech qanday bezakni ko'rmaymiz.

Gul va naqshlarining turlari jiqatidan jullar ham bir necha qismga bo'linadi. Darham turidagi jullar guldo'ziy tarzida ham, tagzamini tilla yoki kumush iplar bilan bir sidra tikilgan zamindo'ziy tarzida ado etilgan.

Tilla yoki kumush yuzalarda gullar teng qator qilib joylashtirilgan guldo'ziy-zamindo'ziy tarzi yopqilar uchun eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Barcha guldor yuza qandaqor choki (tikishi) bilan tikilgan zardo'ziy buyumlarning yagona toifasi kandorido'ziy jullari bo'lib, ular ko'proq bozorda sotish uchun tikilgan.

Davri gardish deb atalgan jul guli darhami daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Bunda daraxt yoki shox yirik jingalak butoqtarzida beriladi. Butoq uchida anorga o'xshagan, ammo zardo'zlar gul deb ataydigan yirik meva nusxasi ham bo'ladi. Bu toifa yopqilar doim guldo'ziy-pulakchado'ziy tarzida ado etilgan (tagzamini sim ipda tikilgan. Davri gardish yopqilari XIX asrning 80-90 yillarida bozorlarda sotish uchun ko'p miqdorda tayyorlangan. Biroq o'sha asrning 40-50 yillarida ular sal bo'lmasa amirning shaxsiy buyumi sifatida foydalaniladigan zardo'ziy yopqining yagona turi bo'lib qolgan edi. Bundan ancha vaqt muqaddam davri gardish jaydari (buxorocha)

shoyi barqutga yuksak sifatli zar bilan tikilgan. Ular tikishining puxtaligi, jiyaklarining bejirimligi, tagzamini kumush ip bilan kalin kilib tikilishi ila ajralib turadi. Sunggi davrlarda xuddi o'sha jullarni yarim shoyi jaydari barqutga sifati past zarda tikishgan, gullarining tarqi ham u qadar mukammal bo'lmagan. Ish sifati ham o'rta darajada bo'lgan. Davri se gula jullari odatda yirik gul qubbasi yoki yirik bodam shakli, goho qo'sh bodom shakli bilan bezatilgan. Naqshlar yopqining markaziy qismida, burchaklarida o'rin olgan.

Xuddi davqur turidagi to'nlarda bo'lganidek, gul naqshida ham dastlabki islamiy shakllar ozmi, ko'pmi yo'kolgan, ammo ka'bi gul islamiy talqinning asosiy belgilari saklanib qolgan. Yopqilarda ka'bi gul naqshining joylashuviga g'oyat qat'iy ravishda amal qilingan: markaziy gul hamisha bor bo'yi bilan pastga qaragan bo'lgan, qolgan ikkitasi esa burchaklarga tomon yo'nalgan. Se gula jullari faqatgina amirning buyruqiga binoan yoki unga in'om etish uchungina tikilgan. Uni sotish uchun bozorga olib chiqilmagan. Bunday jullar katta amaldorlarga hadya etilgan. Zardo'zlarning guvohlik berishlaricha, bu toifa jullar XIX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan. Birok, ular bundan ancha oldin paydo bo'lganini tasdiqlovchi dalillar ham yo'q emas. XIX asrning birinchi choragi yoki ikkinchi choragining ayni boshlariga oid namunalarning birida mazkur toifa julning yaratilishiga asos bo'lgan namunasi mavjud bo'lib, undagi bezak gullar o'zlarining islamiy shakllarini saqlab qolganligi shundoq ko'rinib turibdi. XX asrning boshlarida jiga davri deb atalgan yangi nusxadagi jul paydo bo'ldi. U yarim doyra shaklida bo'lib, kashta, zargarlik kumush to'qalar, bandiga tilla qoplangan zar popuklar bilan

obdon bezatilgan. Bunday yopqilardan bizgacha etib kelmagan. Zardo'zlarning gapiga qaraganda, ulardan bor-yo'g'i 5-6 tagina tikilgan ekan. Jiha davriy juli se gula julidan ancha yuqori turgan. Xuddi to'nlarda bo'lganidek, se gula va jiqa davriy jullari uchun ham maxsus gul naqshlar tuzilgan, holbuki boshqa har qanday turdagi jullardan bitta rasm andozasiga qarab bir nechtdan ishlangan.

Erkaklar zardo'ziy poyafzali barqutdan tikilib, ular bir qancha turlarga bo'lingan. Shulardan biri kavushi mirzoyi yoki kavushi xatirchigiy kavushlari bilan kiyiladigan mahsidir. Bunday mahsi-kavushlar bir xil rangdagi barqutdan tikilib, bir xil gulda bezatilgan. Yana poyafzal turlaridan biri muza: tagcharmli, o'kchasi past, o'rtacha yoki baland bo'lgan. Muza bilan maqsining yozgi - tobistoni, qishki - zimistoni turlari bo'lgan. yozgi maqsilarga jaydari yarim shoyi mato - adrasdan astar qo'yilgan, qishkilariga mo'ynadan astar qo'yilgan, o'kchasi keng va past bo'lgan. Zardo'ziy poyafzalning uchinchi turi - qo'nji uzun, o'kchasi baland mo'zi xatirchigiy bo'lib, ularni asosan suvoriylar, ovchilar, chavandozlar kiyganlar. Poyafzallardagi gul naqshlari butun yuzani bir tekisda qoplab olgan. Ular, odatda yo daraxt turidagi islmiy naqshlardan yoki gullardan, bir tekis sochilgan girq va qalqalardan iborat kompozitsiyalar bo'lgan. Gul va girqlarning oralaridagi bo'shliq yaproq nusxalari yoki zar ipda tikilgan bodom, turunj kashtalaridan iborat kompozitsiyalar bilan to'ldirilgan. Goho xuddi o'sha kashtalar yordamida guldonlardan "o'sib chiqqan" murakkab islmiy kompozitsiyalar ham uchrab turadi. Bolalar zardo'ziy poyafzalining

ikki turi ma'lum: mahsi va past, keng o'kchali muza. Ayollarning faqat mahsisigina tikilgan. Uni yo zardo'ziy barkut kovush bilan yoki zar gulli charm kovush bilan kiyishgan. Ayollar va bolalar poyafzali ancha oddiy giriq va qalqalar bilan bezatilib, ularning oralari yaproq nusxalar yoki tagalak gajaklari bilan to'ldirilgan. Bodom kashtasi kompozitsiyasi juda ko'p uchraydi, ayollar va bolalar poyafzali faqatgina guldo'ziy tarzida ado etilsa, katta yoshdagi erkaklar poyafzali ham guldo'ziy, ham zamindo'ziy tarzida tikilgan.

Erkak va ayollarning quyidagi buyumlari ham zardo'ziy usulida tikilgan salla, kuloq, ayollar do'ppisi, peshonaband. Buxoro ayollari 40-46 yoshidan boshlab kiyadigan kultapo'shak - bosh kiyimi, sarandoz va rido - ro'mollari, miyonband-erkak va bolalar belbog'i, ayollar ko'ylagi o'mizi (yoqasi) girdini bezaydigan yo'l - zei kurta, eng uchlari - no'gi. ostin, ayollar kamzulining yoqasi, paranjining peshak va dumi - paranji kashtalari, chashmband - yuz niqobi, qopchuq - hamyoni, shona xalta - taroq xaltasi, jildi soat - soat xaltasi, shaxsiy muhrini solib qo'yadigan muqrdon va boshqalar.

Erkaklar zardo'ziy to'nlari odatda zardo'ziy kuloh ustidan zardo'ziy salla bilan kiyilgan. Kuloh to'nning rangidagi barqutdan tikilib, islmiy naqshlar bilan oro berilgan. Bu naqsh uncha katga bo'lmagan butoq yoki guldan, ba'zan o'simlik mevasi - bodom yoki zirkning badiiy uslublashtirilgan ifodasidan iborat bo'lgan. Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, to'nlari bilan kiyiladigan kuloh ham shunga munosib bo'lgan. Sallaning umumiy uzunligi 24 gaz (bir gaz -78 santimetr) bo'lib, shundan

uchdan biri - 8 gaziga zardo'ziy bezak berilgan. Bir tomondan qirg'og'i bo'ylab 8-10 santimetr enlikda juda qalin qilib zardo'ziy kashta tikilgan. Sallaning ikkinchi uchi - fachi salla 20-25 santimetr uzunlikda bodom nusxa yoki shunga o'xshagan biron gul naqshi bilan bezatilgan. Sallani kuloq ustidan shunday o'ralganki, kashtasiz qismi kashtalik hoshiya tagida qolib ketgan. Uning ikkinchi uchi fachi salla nomoz o'qilayotgan paytda chap tomondan tushirib qo'yilgan.

Kallapo'shi zardo'ziy-erkaklar bosh kiyimini yoshroq odamlar, o'smirlar kiygan. Utgan asr oxiri va asrimizning boshlarida yasalgan bunday cho'qqinamo bosh kiyimi ayollar kallapo'shidan tagining ancha baland ko'tarilib turishi bilan farqlanib turgan. Ayollar do'pnisi ham, erkaklar do'ppisi ham sidirg'a rang barqutga tagidan zamindo'ziy, guldo'ziy tarzi bilan yaxlit gullar berib tikilgan. Ancha engil va nafis bo'lganligi uchun ko'proq guldo'ziy tarzidagi gullar ishlatilgan. Do'ppilarga boshdan-oyoq islmiy kashtalar bilan ham, turli ko'rinishdagi geometrik shakllar bilan ham oro berib chiqilgan. Geometrik shakllar olti va sakkiz qirrali shakllar bo'lib, ko'pincha ular bir-biriga qalashtirib tikilgan va oralari gul va yaproq nusxa naqshlar bilan to'ldirilgan. Chorgul naqshi ham erkaklar, ham ayollar do'ppisida baravar ishlatilgan. Chorgul kompozitsiyasida zargarlikka yoki zardo'zlikka oid qubba - bo'rtma taqinchoqi qo'llanilib, har bir butoq yoki gulga uch donadan qo'yib tikilgan. Bunday do'ppilar chor guli duvozda qubba (o'n ikki qubballi to'rt gul) deb atalgan.

Turli xildagi to'rt qirrali yulduzchalar. XX asr boshlaridagi erkaklar do'ppisi uchun xos kashtalardan hisoblanadi. Erkak va ayollarning cho'qqi do'ppilarining gardishi zar ipda tikilgan yoki rangli shoyi jiyak bilan aylantirib chiqilgan.

Peshonaband barqutga, shoyyga, guldor atlasga, ayniqsa fabrikada to'qilgan atlas ro'mollarga tikilgan. Keksa zarduz ustalar XIX asrning 80-yillarida kizil alvonga (alvoni surx) zardo'ziy peshonabandlar tikish keng rasm bo'lgapini eslaydilar. Peshonabandlar ensizgina bo'lib, kashtalari qator qilib terilgan 5 yoki 7 ta qalqachalardan (chilyolak) iborat bo'lgan. Bizgacha saqlanib qolgan peshonabandlar, asosan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga taalluqlidir. Kashta 8 dan 11 santimetrgacha enlikdagi yo'l bo'lib, chorsi ro'molda ko'ndalang tarzda joylashgandir. Ro'molning ikki qarama-qarshi burchaklari bitta qilib buklanib, oldindan tayyorlab olingan tarq asosida kashtalangan, qolgan burchaklari esa bosh orqasiga bog'lash uchun qoldirilgan. Peshonabandlar kashtasi zamindo'ziy va guldo'ziy tarzlarida ado etilgan - Se kitoba (uch kitoba) deb atalgan kompozitsiya shu davr bosh kiyimlarini bezashda keng qo'llanilgan. Bular yo cho'zinchoq doirayu to'rt yaproqli girihlar, yoki olti va sakkiz burchakli shakllardan iborat bo'lib, uchtasini bir qatordan qilib islmiy naqsh yoki yozuvlar bilan bezalgan barqut yoki zar tagzaminga joylashtirilgan. Ba'zan bunday kitobalar ichiga - fabrikada ishlaigan oltiburchakli metall yulduzchalari taqilgan halqachalar bilan bo'lingan. Yulduzchalar qimmatbaho toshlarga o'xshab ketadigan rangli shishalar bilan bezatilgan. Majnunbed (majnuntol) kashtasi peshonaband

uchun eng sevimli mavzu hisoblangan, moq yarimoy kompozitsiyasi ham tez-tez uchrab turadi. Moq peshonabandi zargarlik to'qnoqichlari bilan bezalgan.

Peshonaband aslida zardo'ziy do'ppi ustidan o'ralgan. XIX asr boshlarida ayollar zardo'ziy do'ppilarining ikki xili mavjud bo'lgan. Xiyla eskiroqlari cho'qqinamo bo'lib, uni to'ppi kavushnok deyilgan, keyinroq, 90-yillarning so'nggiga kelib paydo bo'lgan, usti yassi va gardishi baland do'ppilarni do'ppi taqsimigiy deyilgan. Taqsimigiy do'ppilarning gardishiga shoyi jiyak tikilmagan, zardo'ziy naqshlar esa butun gardishni qoplab, kungura ko'rinishi kasb etgan. Kungura nusxa kashta bilan tikish uzoqqa bormay, taxminan XX asrning dastlabki o'n yilidayoq barham topdi. Soch o'rimlarini qoplab turadigan uzun "dum"li kulutapo'shak bosh kiyimini yoshi katta ayollar kiyganlar. Sochlar qar tomonga yoyilib ketmasligi uchun "dum"ning tagidan ikki-uch joyiga tugma ham qadalgan. Bosh qismining sirtiga guldo'ziy tarzidagi islmiy naqshlar bilan sidirqa bezak berilgan. Gardishning old qiomi va "dum"ning qirkoqlari islmiy yoki ishkandar pechak kashtalari yo'sinida qilib engilgina gullar tikilgan. Gardish chekkalariga enli shoyi jiyak yoki zarrin jiyak qadab tikilgan. "Dum"ning quyi yuza qismiga guldondagi gul tasviri tushirilgan. "Dum"ning qirkoqlari ham jiyak va keng zardo'ziy yo'l bilan aylantirib chiqilgan. Bu xildagi zardo'ziy bosh kiyimlari ko'pincha piston qadamali po'lakchado'ziy tarzy bilan qo'shib yuboriladi.

Chorsi sarandoz ro'moli ham zardo'zlik kashtalari bilan bezatilib, to'g'ri ikki buklangan holda boshga tashlab yurilgan, bunda ro'molning to'rtala uchi ham orqaga tushib turgan. Sarandozni do'ppining ustidan,

peshonabandning ostidan taqilgan. Uchburchak rido ro'moli esa peshonabandning ustidan tashlab, bir uchi orqaga, ikki uchi ko'krakka tushirib taqilgan. Sarandoz ro'mollari popukli kattakon fabrika atlaslaridan qilingan. Ular kashtalarining g'oyat oddiy va yaxlit tuzilishlari bilan ajralib turadilar, o'rtacha enlikdagi jiyak (qoshiya) bilan aylantirilib, islamiy naqshlar bilan to'ldirib chiqilgan, to'rttala burchagida buta kashtasi, o'rtada umumiy markazga ega bo'lgan qalqalardan iborat kattakon doira bo'lgan. Qalin to'qilgan, shoyi matodan qilingan ridolarga burchaklarida bodom kashtasi va o'rtasidan yarim doyra nusxasi tikilgan.

Katta yoshdagi erkaklar va bolalar belbog'i shoyi va atlasdan tikilib, sarandozdagidek kashtalar bilan bezatilgan, faqat o'rtadagi doyra bo'lmagan, xolos. Kashtalarning jimjimadorlikdan xoliligi va tarqlarining oddiyligi ularni ro'mollardan farqlab turgan.

Ayollar bayram liboslari uchun uni 7 dan 10 santimetrgacha bo'lgan zei kurta - yoqa tikilgan. Bunday yoqaning uzunligi tizzagacha tushgan, ba'zan undan ham uzunroq bo'lgan. Unga tikilgan gul va kashtalar o'zlarining rang-barangligi, serbezakligi bilan diqqatga sazovordir. Zardo'ziy zei kurtalarning haddan ortiq jimjimador kashtalari zardo'zlikdan tashqari yana booma islamiy naqshlar tushirilgan yupqa zarrin kumush qoplamalari bilan ham bezatilgan. Ayollar ko'ylagi engining nugi ostiniy aloqida tikilib, uni boshqa har qanday bayram libosiga ko'chirib o'tqazish mumkin bo'lgan. Buxoro shaqri ayollari meqmonga borayotib bir nechta ko'ylakni ustma-ust kiyib olganlar. Ularning qimarilgan uzun englaridan nechta va qanaqa ko'ylak

kiyganlari yaqqol ko'rinib turgan. Badavlat bo'lmagan ayollar bunday zardo'ziy ko'ylak o'rniga eng taqishgan. Englarni asosan shoyiga tikkanlar, kashtalari enli jiyak ko'rinishida oddiygina islamiy naqshlar bilan to'ldirib bezatilgan.

Xuddi englar singari kamzullarning yoqasi ham alohida tikilib, boshqa kamzulga ko'chirib o'tqazish mumkin bo'lgan. Yoqalar silliq sidirqa rang barqutga tikilgan. Paranjining faqatgina ko'krak qismidagi (qar bir tomonida bittadan) peshakka uncha katta bo'lmagan bodomnuxa zardo'ziy kashta tikilgan. Yolg'on englari - dumi paranjining uchlarini biriktirib turadigan ensizgina yo'lga ham xuddi shunday kashta tikilgan. Ot yoli parda - chashmbandning pastki qismidan 8-10 santimetr enlikdagi zardo'ziy jiyak islamiy tarzidagi kashta bilan to'ldirib chiqilgan. Chashmband ham yuza qismidan, ham ochib yurilganda ko'rinib turgani uchun ichki qismidan kashtalar bilan bezatilgan. Tagzamin o'rnida nopormon barqutdan foydalanilgan.


Pul, taroq, muqr, cho'ntak soatlar singari buyumlarni solib yuradigan turli xaltachalar bir xil rangdagi silliq barqutdan tikilgan. Bunday xaltachalarga islamiy ko'rinishdagi butoqcha, bodomcha nusxa kashtalar bilan bezak berilgan. hamyonlar ar ikkala tomonidan, qolgan barcha buyumlarni faqat bir tomonidan kashtalar tikilgan.

Uy-ro'zqor buyumlaridan so'zana zardo'zlik naqshlari bilan tikilgan. Taqiyapo'sh - yostiq jildi, lo'la-bolish qilofi, joyno;mozlar ham shunday usulda bezatilgan. So'zana va taqiyapo'shlar ko'proq nopormon barqutga

guldo'ziy va guldo'ziy-zamindo'ziy tarzida tikilgan. Bu har ikkala buyum kashtalari g'oyat oddiy bo'lgan: islamiy naqshli o'rtacha enlikdagi jiyak qator tik butalar yoki burchak-burchagida islamiy naqshlardan iborat qalqachalar markaziy maydonni qurshab olgan. So'zanadagi butalar orasida ochiq qolgan qismlar ancha mayda butachalar bilan to'ldirib chiqilgan. Butachalar naqshi, ayniqsa, keng rasm bo'lgan. Lo'la-bolish qiloflari guldo'ziy tarzida ko'proq butachalar naqshi bilan orolanib, tikiladigan hamma joy baravar to'ldirib chiqilgan. Lo'laning qirkoqlari islamiy kashtali ensizgina jiyak bilan aylantirilgan.


Yuqorida batafsil bayon etilgan zarduziy buyumlar fakatgina uziga to'q odamlarning uyida bo'lib, to'y va tantanalarda (kelin to'yi, xatna to'yi, beshik to'yi va hokazolar) taxmonlarni ko'rpa-to'shakka to'ldirib, uyni kurkam qilishda foydalanilgan.

Joynomoqlar to'qsariq rangdagi qarshi olachalaridan tikilgan. Ularning kashtalari uchala tomondan qirkoq bo'ylab aylantirib chiqilgan enli jilklarda o'z ifodasini topgan. Jiyaklarning tagzamini, odatda, aloqida joylashgan butalar bilan kashtalanib, buyumning o'rtasi ochiq qoldirilgan.




II. «Бодом» тусхасининг турлари: 1, 7, 8, 12 — «бодом»; 4, 10, 11 — «кўшбодом»; 2, 3 — «кўшбодом хазоннок»; 5, 6 — «бодом хазоннок»; 9 — «бодом пазлинок».

II. Варианты мотива «бодом»: 1, 7, 8, 12 — «бодом»; 4, 10, 11 — «коч-бодом»; 2, 3 — «коч-бодом-хазоннок»; 5, 6 — «бодом-хазоннок»; 9 — «бодом-паллинок».



III. «Турун» на элэр нукаларнинг турлари: 1, 5, 7 — янор-
нинг «арда» усталари «тул» деб аталган услублаштирилган
меза шакли, 2, 6, 8, — «турун», 3, 9, 10 — «турун» хазон-
но, 4 — «турун» кавалон.

III. Варианты мотива «турун» и грезата: 1, 5, 7 —
стилизованная форма грезата, павильонный мастерани-
волокоты «тул» — цветок; 2, 6, 8 — «турун»; 3, 9,
10 — «турун»-хазонно; 4 — «турун»-кавалон.



V. «Гули чинни» нусхаларининг турлари ва бошиқлари: 1, 3, 5, 6 — «гули чинни»; 2 — «гули қашқари»; 4 — «гули қоса-гули»; 7 — «ангур».

V. Варианти мотивов «гули чинни» и другие: 1, 3, 5, 6 — «гули-чинни»; 2 — «гули-нашқари»; 4 — «гули-қоса-гули»; 7 — «ангур».

2.3. Zardo'zlikda panno (namoyon naqsh) bajarish jarayoni

Men malakaviy bitiruv ishim uchun o'z oldimga zardo'zlikdan panno tuzishni maqsad qilib qo'ydim.

Bizga ma'lumki, panno turli xildagi bo'ladi. Unda islamiy va geometrik naqshlardan foydalanamiz. Panno asosan kashtada, zarda bo'ladi. Panno xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi.

Hozirda zardo'zi buyumlarning turlari o'zgardi, avvalgi hashamdor buyumlar o'rnini nafis ishlangan, davr talabiga mos buyumlar egalladi, naqsh mujassamoti soddalashtirildi, an'anaviy naqshlar davr ruxini ifoda etuvchi shakllar bilan boyitildi.

Zardo'zlar ayollarning bayram liboslari (ko'ylak, nimcha, do'ppi, kamar, kavush, sumkacha), an'anaviy buyumlar, erkaklar uchun sovg'a tunlar, do'ppilar tayyorlay boshladilar. 40-50-yillar boshida maxobatli zardo'zi na namoyonlar yaratish sezilarli darajada rivojlandi. Dastlabki yirik ish Navoiy teatri uchun tikilgan zardo'zi parda bo'ldi (1947, A.Shchusev chizgisi, hajmda 7x27 m).

Rassomlarning amaliy san'at ustalari bilan hamkorligi hamda ijodiy izlanishlar natijasida yangi mujassamotli mayda buyumlar, badiiy jihatdan qimmatli namoyonlar yaratildi va yaratilmoqda: "Kitoba" (1952, N.Aminov chizgisi), "Paxta" (1955, M.Prutskaya chizgisi), "Bayram" (1959, V.Stolyarov va M.Ahmedova chizgisi), "Girig'" (1962, V.Stolyarov chizgisi), Alisher Navoiyning 525 yilligiga (1968) va b.ga baqishlangan namoyonlar zardo'zlikning katta yutuqi bo'ldi. 90-yillarga kelib zardo'zlik kayta tiklandi.

Buxoro, Andijon, Namangan, Farqona, Toshkent, Samarqand, Urgut, qarshi, Jizzax shaqarlari, Surxondaryo viloyati zamonaviy zardo`zlik san`atining markazlari hisoblanib, zardo`z ustalar (N.Aminov, B.Jumaev, S.Akbarova, T.Sodiqova, G.Bozorova, G.Pirimqulova, M.Xabibova, G.Nurtoeva, M.Muxiddinova, D.Tosheva va b.) chopon, do`ppi, nimcha kabi liboslar qatorida mavzuli nimoyonlar, teatr pardalari hamda sovg'a buyumlar, ignadonlar, ko`zoynak 'g'ilofi, upa-supra sumkachalarini zardo`zlik usullarida bezatishni rivojlantirdilar.

Zardo`zlik san`atida qo'llaniladigan naqshlarning mutlaq ko'pchiligi islamiy bo'lib, geometrik va shunga o'xshagan naqshlar undan keyingi o'rinda turadi. Islamiy naqshlar turli – tuman dastagullar, yaproqlar, butoqlar, daraxtlar, shoxlar, gulli guldonlardan iboratdir. Meva shakllardan tuzilgan naqshlarda biz marvarid, turunj, anor, olcha, uzumlarni ko'ramiz.

Odam va hayvonot tasvirini inqilobdan oldingi Buxoro zardo`zligida sira uchratmaymiz, bunday naqshlar faqat inqilobdan so'nggi davrlarda, u ham bo'lsa, ayollarning uy ichida kiyadigan buyumlarida, xususan, do'ppilarda paydo bo'ladi. Masalan, bunday do'ppilarning tepa qismida tovu, ba'zilarining girdida qator qilib o'rdaknamo qushlar tasviri tushirilgan. Bunday buyumlar faqat maxsus buyurtma asosidagina tikilib, bozorda sotuvga chiqarilmaganini zardo`zlarning o'zlari qayd etadilar.

Barg turidagi naqshlar quyidagilarga bo'lingan: dona – dona yaproqlar-yakkabarg, juft – juft yaproq - dubarg, uchtalik yaproqlar – se barg, majnuntol yaprog'i – bargi majnunbed va hokazolar.

Aksariyat ornamental gul turlari o'zlarining uzoq davomli rivojlanishlariga shu qadar ko'p uslublarga va geometrik ko'rinishlarga ega bo'lganki, hatto ularning dastlabki islamiy shakllarini ilg'ab olish mushkul. Zamonaviy ustalar, ularni xohlagan maqomda talqin qila boshlaganlar.

a) Panno uchun kompozitsiya tuzish.

Men panno kompozitsiyasini tuzishdan oldin zardo'zlik haqidagi adabiyotlar bilan tanishdim. Bulardan S. S. Bulatovning "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati", D. Dadashev "Naqsh alifbosi" Toshkent Cho'lpon, 1999. , N. Aminov, Biz zardo'zlarmiz "O'zbekiston" Toshkent 1981, "Moziydan sado" va san'at jurnallarining zardo'zlikka atab ayrim sonlaridan foydalandim. Bundan tashqari Buxorodagi barcha muzeylardagi pannolarning qadimiy eksponatlarini ko'rib o'rganib chiqdim. N. Alimovni "Go'ri Amir" pannolarini M. Temirova, B. Jumayevning yettipir, tovu, makka va boshqa ko'plab qo'li gul usta zardo'zlar ishlari va ularning ishi texnologiyalari bilan chuqurroq tanishib chiqdim. Ma'lumki, zardo'zlikda xalq amaliy bezak san'atining naqshlar vositasida badiiy ishlov berish turidir. Shunday ekan, mohir zardo'z bo'lishni xohlagan har bir o'quvchi naqsh kompozitsiyalari chizishni, ularni kartonga tushirish va qirqishni , qirqilgan naqsh kompozitsiyalarini zar iplar bilan tikish va bezatishni bilishi zarur. Ayniqsa, zardo'zlik kompozitsiyalari asosini tashkil etuvchi naqsh kompozitsiyalarini chizish va qirqish usullarini o'zlashtirish muhimdir. Bu usullarni o'rgatishdan ilgari o'qituvchi "Zardo'zlik kompozitsiyalari" tushunchasining mohiyatini ochib berishi zarur.

"Kompozitsiya" lotincha so'z bo'lib, "Qurish, tuzish, joylashtirish" ma'nolarini anglatadi. Demak, har qanday kompozitsiya qandaydir elementlardan tuziladi, hosil qilinadi. Jumladan, zardo'zlik kompozitsiyalari ham quyidagi elementlardan iborat:

1. Kompozitsiya asosini tashkil etuvchi elementlar. Bu elementlar kartondan qirqib hosil qilinadi va usti guldo'zi usulida zar iplar bilan qoplab tikiladi.

2. Kompozitsiya asosi tagini to'ldirib turuvchi elementlar. Bu elementlar zamindo'zi usulida zar iplar yordamida hosil qilinadi.

3. Kompozitsiyani to'ldirib turuvchi qo'shimcha elementlar. Bu elementlar bezatish usullarida bezaklar yordamida hosil qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur bo'limda zardo'zlik kompozitsiyalarining asosini tashkil etuvchi elementlari o'rganiladi. Bu elementlar kartondan qirqib hosil qilingan naqsh kompozitsiyalaridir. Har qanday naqsh kompozitsiyasi asosini ma'lum turdagi naqsh nusxasi tashkil etadi va shu nusxaga qarab kompozitsiya nomlangan bo'ladi. Naqsh nusxalari qayta ishlash (stilizatsiya) jarayonida hosil qilinadi. "Qayta ishlash" jarayoni va uning qoidalarini amaliy mashqlar vositasida o'quvchilarga chuqur tushuntirib berish muhimdir.

Shundan so'ng malakaviy bitiruv ishim uchun panno tikishni maqsad qildim va unga mos kompozitsiya tuzishni boshladim.

b) Amaliy ishning tikish jarayoni

Men bajargan panno kompozitsiyasini bajarishda:

1. Birinchi navbatda namoyon naqsh kompozitsiyasini kalka qog'oziga chizdim;
2. Maxsus zardo'zlik kartoniga gulni o'tkazish uchun kalkaga chizilgan gulni maxsus yog' surtib, so'ngra tekis joyga kartonga yopishtirib, keyin kalkaga chizilgan gullarni igna bilan teshib chiqdim; (axta)
3. Gul nusxasi kartonga o'tgach, gulni maxsus qaychi ushturgardan bilan qirqdim;
4. Korcho'pni qalin bo'zga tortib tayyorladim;
5. Bo'z ustiga Duxoba vilyur matoni tikdim;
6. Duxoba vilyur mato markaz qismi tayyorlagan namoyon naqsh gulini to'g'ri joylashtirib chiqdim;
7. Namoyon naqsh tanalaridagi har xil gullarining asosi qizil duxoba bilan ajralib turishi uchun gullar tagidan tikdim;
8. Zar ipni patilaga 5 naxiyada (qatorda) o'radim;
9. Naqsh ustidan o'ralgan zar ip bilan guldo'zi tikish turidan foydalangan holda tikishni boshladim;
10. Ishimni ramkaga solib tugalladim.

Zardo'z quyidagi tartibda ishlaydi. Usta erda, ko'rpacha ustiga o'tirib korcho'pda tikadi. Korcho'p oddiy yog'och ramkadir. Bu ramkaga mato tortilib chiqiladi hamda bu mato ustiga sidirg'a ko'k, to'q qizil yoki binafsha rangdagi baxmal qadab chiqiladi. Usta zardo'z ikkita o'ymoq angushvona yordamida

tikib, o'ng qo'lining barmoqiga tikuvchilar ishlaydigan charmdan tikilgan o'ymoq kiyib tikadi. Hammamizga ayonki zardo'zlik ikki qo'l bilan tikilib, zardo'zlik ignasi kalta va nozik bo'lishi lozim bo'ladi. Tilla rangli zarni qizil hamda sariq iplar bilan kumush zarni oq ip bilan tikiladi.

III. XULOSA

Tikuv tarz-tariqalarining bir qancha uslubiy xususiyatlari va tahliliga hamda ularning XX asr boshlaridagi Buxoro yodgorliklarini 4 guruxga ajratish mumkin. I-XIX asrning 30-60 yillari; II -XIX asrning 70-80 yillari; III- XIX asrning 90 yillari; XX asrning birinchi un yilligi; IV-XX asrning ikkinchi un yilligi. Birinchi davrga oid zardo'zlik yodgorliklari o'zining mukammal uslubga ega ekanligi bilan diqqatni tortadi. Ularda aks ettirilgan islamiy kompozitsiyalarda kashta gullari ham shunchalik ravon va jozibadordir.

Xom-ashyo taxchilligi tufayli usta zardo'z nozik did bilan ado etgan. Gul bosishdagi rang turlari g'oyat cheklangan sharoitda tikishlarning turli tuman kombinatsiyalardan foydalanilgan va nur va soyalar o'ynoqligini aks ettirish maqsadida qator texnik usullarni qo'llagan holda zardo'zlar buyumlarga chuqur badiiy ma'nodorlik bag'ishlashga muvaffaq bo'lganlar.

O'rta Osiyoning mohir ustalari qo'llarida barq urib gullagan Buxoro zardo'zlik san'ati o'zining badiiy qiymati bilan muhim o'rin tutadi. Necha asrlar davomida usta zardo'zlar tikishning eng ajoyib yo'larini topdilar va uni takomillashtirdilar.

Ranglardagi nazokatni chuqur xis etilgan xolda ochiq rangli shoyilar, zardo'zlikda tadbiq etila boshlandi. Milliy naqshlarning ayrim elementlari va kompozitsion tuzilishlari beqiyos xayolot maxsulni ekanligi aslo sir emas. An'anaviy talqinlarning keng miqiyosda qullanilishi va an'anaviy

kompozitsion sxemalarning mulligiga qaramay, bunda qotib qolgan andaza yoki shablondan asar xam ko'rmaymiz. Bular xammasi ustalarining O'zbekiston xalqlarining madaniy merosiy xazinasiga bebaxo xissa bulib qo'shiladigan chinakam san'at durdonalari yaratishiga imkon buruvchi qizgin ijodiy mexnatdan darak burib turadi.

Malakaviy birituv ishi 2 qismdan iborat bo'lib nazariy qismini birinchi bandiga zardo'zlikda dekorativ panno bajarish. Uni kelajak avlodga davom ettirishni inson hayoti va turmushida qo'llashni tavsiya etganman. Mening bitiruv malakaviy ishim o'sayotgan yoshlar tarbiya oladigan kasb - hunar kolleji, o'rta umum ta'lim maktablarida darsdan tashqari ishlarida qo'llash mumkin. Xuddi shunday o'qituvchilar malaka oshirish institutlarida "Tasviriy va amaliy san'at" fani o'qituvchilariga qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishda milliy bezaklar bilan zamonaviy o'zbek xotin - qizlari va yoshlarning kiyimlarini bezashni asos qilib olganman.

Hozirga qadar bu san'at davom ettirilib kelyapti. Ustalardan 90 yoshni qarshilagan Nurmuhammad Sultonov, Muyassar Temirova, Baxshillo Jumayev va boshqa ko'plab ustalar o'zining ishida izlanishlar olib borayaptilar. Bu merosimiz avloddan - avlodga doimo barqaror bo'lib qoladi.

Serquyosh O'zbekistonimizga tashrif buyurgan qar bir sayyoh Sharqning go'zal -xotin-qizlariga qarab ularning haqiqiy san'at ustida ish olib borayotganligidan tasanno aytadi. Zardo'zlik kiyimlari hozirgi kunda xotin-qizlarning milliy kiyimiga aylanib bormoqda. Nafosatga boy o'zbek xotin-

qizlari chinakam mehnat qilib, nodir asarlar yaratib zardo'zlik san'atining xazinasiga katta hissa qo'shmoqdalar. Qadimiy va hamisha navqiron san'at turlaridan biri bo'lgan zardo'zlik san'atining kelajagi porloq. Albatta kelajakda ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan bu san'atni yanada rivojlantirib insonga estetik zavq bag'ishlaydi. Kelajakda xotin-qizlarimiz boshida oltinday tovlanib turgan chiroyli do'ppilar, oyoqlarida mavj urib turadigan poyafzallar xonadonimizga fayz kiritishiga aminman.

V. ZARDO'ZLIK TERMINLARI LUGATI.

Almosiy (olmos) - girdobsimon gajakdor barglar turkumi ko'rinishidagi naqshning bir bo'lagi.

Angur - Uzun gujumlari shaklining jilosi.

Bayt - she'r - hashamdor yozuvlarga taqlid "kitoba" naqsh turini to'ldirish yo'li.

Barg - har qanday yaproq shaklida tikilgan kashta.

Bargi majnunbed - majnuntol.

Bargi shallukiy- zuluk ko'rinishidagi ingichka egma yaproq tasviri.

Birishimdo'ziy - shoyida tikish.

Bodom - bodom.

Bodomi na'laknok - taqa tasviri bilan to'ldirilgan bodom shakli.

Bodomi xazonnok- bargi so'ligan bodom shakli.

Bodomi shoxnok - bodom va shoxcha tasvirini beruvchi shakl.

Bodomcha - bodomcha.

Buta - gulli buta.

Butacha - butacha.

Butador - yuza bo'ylab bir tekis yoyilgan, gul dastalaridan tuzilgan bir butun naqsh, "Buttador" usulida bezaklangan buyum turi.

Butadori daraxt - bir butun naqsh, "darhami daraxt" varianti, bunda gul tik yo'l-yo'l qatorlar bo'ylab joylashgan bo'ladi.

Butadori tavqnok - bir tekis yoyilgan va orqasida katta "tavq" turunji bo'lgan bir butun naqsh.

Butadori chilyolak - yuza bo'ylab bir tekisda "chilyolak" halqachalari joylashgan bir butun naqsh.

Gardish - "darhami daraxt" naqshining bir turi.

Guli bibishak- ayollarning manglayga taqadigan gulga o'xshash zargarlik taqinchoqi.

Guli qal'agiy - nusxasi chet el idishlaridan olingan yirik gul shakli.

Guli qashqariy - qarang: "guli sadbarg".

Guli kosagul - qarang: "guli qal'agiy".

Guli sadbarg - yuz yaproqli gul - ko'p miqdordagi yaproqlardan tuzilgan gul naqshi.

Guli chinni - xrizantema.

Guli chorbarg - to'rt yaproqli gul naqshi.

Guli qasht barg - sakkiz yaproqli gul naqshi.

Guli shishbarg - olti yaproqli gul naqshi.

Gul - har qanday gul naqshi.

Guldo'ziy - charm, karton yo qog'ozdan qiyib tayyorlangan rasmga tikilgan kashta.

Guldo'ziy zamindo'ziy - "guldo'ziy"ning "zamindo'ziy" bilan birikib, "guldo'ziy" hosil etuvchi aralash (murakkab) texnika.

Daraxt - daraxt shakli ifoda etilgan kashta (gul).

Darham - butun tikish yuza bo'ylab naqshi bir tekis joylashgan bir butun kashta.

"Darham" uslubida bezatilgan kiyim turi.

Darhami daraxt - asosini daraxt shakli tashkil etgan, gullari barcha tikish yuzasi bo'ylab bir tekisda joylashgan bir butun naqsh turi.

Davqur (davri qur birikmasidan) - orqasida "tavq" turunji bo'lgan kiyimning jiyak guli.

Davriy gardish - "gardish" usulida tikilgan jul.

Davriy se gula - "se gula" usulida tikilgan jul.

Dubarg - juft-juft gul.

Jiga davriy - yarim doyra shaklidagi jul.

Zamindo'ziy - zaminni bir tekis zar ipda tikishning turli yo'llari.

Zamindo'ziy-guldo'ziy - "zamindo'ziy" ustunligidagi aralash texnika. qarang: "guldo'ziy-zamindo'ziy".

Zardo'z - zardo'z.

Zardo'ziy - zarda tikilgan.

Zardo'ziy - berishimdo'ziy - zar va rangli ipak ipda tikishning aralash texnikasi.

Zei kurta - ayollar ko'ylagining yoqa va o'mizidagi kashtalar.

Iroqi- salib ko'rinishidagi chok (tikish) turi.

Islimiy - o'simlik navdasi ifodasi.

Islimiy du raftora - bir-biriga o'rilgan ikki novda shakli.

Islimiy yak raftora - yakka qoldagi novda shakli.

Ishkandar pecha - "gajak".

Ishkandarpechoni bodomnok - bodomli gjak shakli.

Ishkandarpechoni tangachanok - tangachali gjak shakli.

Ka'bi gul - guldon (arabcha ka'b - idish va forsha gul so'zlaridan). "Tavq" turunjining quyi qismida joylashgan naqsh bo'lagi.

Kalyobatun - zar yo kumush ip qo'shib yigirilgan ipak ipda chok tikish.

Kalyobatuni safid - ipak ipning kumush ip qo'shib yigirilgani.

Kalyobatuni tillo - ipak ipning zar ip qo'shib yigirilgani.

Kandoriy - qarang: kandoriydo'ziy.

Kandoriy dila xonanok - rangli ipak kalava qo'shib qandag'orcha tikish usuli.

Kandoriydo'ziy - qandaqorcha tikish, qatimlarning kesishuvidan qosil qilingan katak-katak naqshlar.

Kandakoriy tangachanok - odatda sim zardan qilinadigan "tangacha" kandoriy.

Kandoriy qashg baxyagiy - sakkiz baxyali qandaqorcha tikish bo'lib, bir-biriga qalashgan kvadratlardan iborat.

Kandoriy qasht baxyagiy dila xonanok - barqut, shoyi kabi mato parchalari qo'yib, sakkiz baxyali qandaqorcha tikish usuli.

Kandoriy qasht baxyagiy tangachanok -"tangacha"li sakkiz baxyada tikilgan qandaqorcha tikish.

Kandoriy chor baxyagiy - kvadratlar to'ri yoki zanjiri qosil qilib, to'rt baxyada tikilgan qandaqorcha usul.

Kitoba - me'moriy bezak elementlariga o'xshatib tikilgan kashta. Yozuvli uzun to'rtburchakning ichi islamiy naqshlar bilan to'ldirilgan.

Kobuliy - kobulcha tikish - baxyalar dumaloq qalqachalar ko'rinishida bo'ladi.

qo'shbodom - bir juft bodom nusxasi.

qo'shbodomi xazonnok - barglari so'ligan bir juft bodom nusxasi.

Koshin - sirli sopol naqshlarga o'xshatib, buyumga qadab tikish usuli.

Qubba - bo'rtiq zargarlik yoki zardo'zlik bezagi bo'lib, kashta yo gulga qo'shib qadaladi.

Kungura - dumaloq yoki to'qri chiziqli tishlar.

Hur - bezakli hoshiya.

Huri pesh-yala - "oldi ochiq hoshiya"- faqat bir tomonidan "oba"si bo'lgan, ikkinchi tomoni umumiy bezaklarga qo'shib turadigan hoshiya.

Lolai qal'agiy - nusxasi Rossiyaning fabrikada to'qilgan gazmollaridan olingan lola shakli.

Lolagul-lola naqshi bezagi.

Majnunbed - majnuntol naqsh bezagi.

Madoxili durun ba durun - qarang: "chor madoxili durun ba durun".

Madoxil - yaproqnusxa ark shaklini eslatuvchi naqsh bezagi. qarang: "chor madoxil".

Marg'ula - gajak.

Marg'ulai dumchanok - "dum"li gajak.

Marg'ulai nuktez - "o'tkir uchli" gajak.

Mavj - "to'lqin" tikish bezagi.

Mavji du ro'ya - ikki taraflama to'lqin - ko'ndalang yo'nalishda yotqizilgan qo'sh yo'lli ilonizi tikish bezagi.

Mavji ocha-bacha - ona-bola to'lqin - biri tor va yasen, ikkinchisi keng va bo'rtiq (shu boisdan u yarqirab turadi) ikki yo'ldan tashkil toptan kashta guli.

Mavji pushti mohiy - "baliq tangachasi", qarang: "mavji duro'ya".

Mavji xanjariy - uchburchak maydonni to'ldirib turuvchi tikish bezagi, baxyalar bir-biriga yonma-yon qolda turli-tuman tomonlarga yo'nalgan bo'ladi.

Mavji bulbuli du ro'ya - ikki taraflama bulbul ko'zi to'lqini.

Mavji chashmi bulbuli chorta - to'shamaning to'rttadan ipiga bulbulko'zi to'lqin tushirilgan tikish bezagi. qarang, "chashmi bulbuli chortai".

Mavji chashmi bulbuli shishta - to'shamaning oltitadan ipiga bulbulko'zi to'lqin tushirilgan tikish bezagi. qarang: chashmi bulbuli shishtai.

Mavji chashmi bulbul - bulbulko'zi - mayda kvadrat va romblar qosil qiluvchi naqsh bezagi.

Mavji chor dar chor - to'rtga to'rt to'lqini - o'rimlarga o'xshagan naqsh bezagi.

Mavji yak ro'ya - bir taraflama to'lqin - ko'ndalang yurgizilgan qo'sh yo'l ko'rinishidagi kashta bezagi.

Moq - yarimoy.

Mashrafa - ko'za.

Meqrob - yaproqnusxa ark.

Na'lak - taqa, "yurak" shaklidagi juft gajak.

Na'laki nuktez - taqa.

Nim xisht - yarimta qisht - ko'ndalangiga kesilib, ikkita uchburchak qosil qiluvchi kvadrat.

Nishon - nur yo'nalishida joylashgan va orden shakli bilan yo'g'rilgan yaproqchalar.

Oba - hoshiya qirg'oqlaridan yurgizilgan yo'l, suv.

Obi chor dar chor - mavji chor dar chor varianti bo'yicha to'qima savatga o'xshash ensiz yo'l ko'rinishidagi kashta guli.

Pulakcha - tangacha. Turli rangdagi va buyumga qadash uchun o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

Po'lakchado'ziy - pistoncha qadab zarda tikish.

Se barg - uch barg.

Se gula - uchta guldari tashkil toptan naqsh, kashta.

Se kitoba - uch "kitoba"- cho'ziq doyra, to'rt yaproqli naqsh yoki ko'pburchakli shakllardan tashkil toptan, qar qatorida uchtadan joylashtirilib, islimiy yo qusnixat bilan tikib chiqilgan kashta.

Siddiy - bir necha qat ipdan eshilgan va matoga yonma-yon qilib qo'yiladigan erish.

Sim-oq yo zarrin tovlanuvchi yassi kumush ip (sim),

Simdo'ziy - kumush ipda kashta tikish.

Tagalak - olqor shoxi - o'rama shaklidagi naqsh bo'lagi, ba'zan bunday shoxlar juft-juft qolda tikiladi.

Tangacha - kichkina doirachalar shaklidagi naqsh.

Tahrir - kashta chekkalarini aylantirib chiqishda ishlatiladigan, zar tolalardan eshilgan ingichka ip.

Tahriri du bardor to'ftagiy - qarang: "taqriri sheroziy".

Tahriri du toba - qarang: "taqriri du bardor to'ftagiy".

Tahriri nim toba - zar tolalardan salqi qilib eshilgan ip.

Tahriri xom - xom tahrir - bir necha qavat zar toladan iborat kalava.

Tahriri sheroziy -4-6 dan 24 qavatgacha toladan ikki yo'lda eshilgan ip.

Tahriri yak toba -4-8 toladan oddiy yo'lda eshilgan ip.

Tavq - (arab. - qalqa) - chopon elkasida joylashgan keng turunj.

Toji gul - gultoj - "tavq" turunji bezab turadigan xurmo bargiga o'xshash shakl.

To'ftado'ziy - eshilgan zar ipda tikish usuli.

Turunj - zirk butasi shaklida ifodalangan kashta, gul.

Turunjina'laknok - zirk va taqa shakllar birgalikdagi shakli.

Xazon - so'lqin, so'ligan (barg).

Xazoni du raftora - ikki taraflama o'rilgan so'lgan barglar.

qasht barg - sakkiz yaproqdan iborat naqsh.

Xisht - qisht- to'rtburchak shakl.

Xishti qaram - muqaddas (arab. - qaram) qisht - bir-biriga qalashtirib tikilgan to'rtburchak shakl.

Xoraqdo'ziy - (xor - tikan) odatda eshilmagan zar yo kumush ipda kashta qiryoqlarini ensiz tarang tugunchalar bilan aylantirib chiqish.

Chashmi bulbuli du ro'ya - qarang: "mavji chashmi bulbuli du ro'ya".

Chashmi bulbuli chortai- erishi to'rt qavat ipdan tashkil toptan bulbulko'z kashta guli (qarang: "siddiy"); baxyalar 4 ipdan iborat erishni hamrab olib, kvadrat yo romb shaklidagi kashtalar qosil qiladi.

Chashmi bulbuli shishtai - erishi olti qavat ipdan tashkil topgan bulbulko'z kashta guli, qarang: "chashmi bulbuli chortai". Bu erda baxyalar 6 qavatli ipdan iborat erishni hamrab oladi.

Chashmi bulbul - qarang: "mavji chashmi bulbul".

Chilyolak - qalqa - gullar bilan to'ldirib chiqilgan qubba.

Chorgul-to'rtta guldan iborat bir butun naqsh.

Chor madoxil - to'rt kirish yo'li (arab, madoxilu - kirish)-ey o'qining uchi ko'rinishidagi to'rtta yaproqdan tashkil topgan gul shakli.

Chor madoxili durun ba durun - bir-biriga qalashtirib tushirilgan arklar tasviri.

Shash xoli du mavja - qo'sh to'lqinli olti xol (qarang: "shash xol" va mavji du ro'ya"),

Shash xoli qashtai - erishning sakkiz ipiga tikilgan "shash xol" gul naqshi (qarang: "siddiy").

Shash xoli yak mavja - bir qator to'lqinli oltita xol (qarang: "shash xol").

Shash xol - "olti xol" - bir yoki ikki qator to'lqinlar orasiga joylanib, to'r qosil qiluvchi kashta guli (qarang: "mavj").

Shox - shox shaklida ifoda etilgan gul, kashta.

Shoxcha - shoxcha - baxyalari archa shaklini qosil qiluvchi kashta guli.

Shoxcha shash xolnok - "shoxcha" bilan "shash xol" elementlarining birikuvidan qosil bo'lgan kashta guli.

Shullukiy - qarang: "bargi shullukiy".

VI. ИЛОВА



Zardo'zlikda gul chizish jarayoni





Korcho'pga gul o'rnatish jarayoni





Korcho’pda kompazisiyasini tikish jarayoni (guldo’zi tikish usilida).






Tikish jarayoni



Zardo'zlikda kompozitsiya(namoyon naqsh)



Zamindo'zi usulida tikilgan "Somoniy maqbarasi"



**Guldo'zi va zamindo'zi usulida tikilgan "Go'ri Amir" maqbarasi
(namoyon) Usta zardo'z Ne'mat Aminov.1970 yilda**



Guldo'zi usulida tikilgan Tovus tasviri, hoshiya qismi islimi naqsh



**Panno N. Aminov
Buxoro, 1956 yil**



Panno "Chamanda gul"




Guldo'zi va zamindo'zi usulida tikilgan so'zana



Zamonaviy zardo'zlik san'ati. Ayollar kiyimi.



Zamonaviy zardo'zlik san'ati.Erkaklar kiyimi.



"Butadori chilyolak" mursakning bir qismi. Duxoba. "Guldo'ziy" texnikasi. Kashtaning ayrim nusxalarini ajratib ko'rsatishda zarli yoki kumush ipdan foydalanilgan. Xoshiya kashtasi- "islamiy". XIX asr 80- yil.




"Zei kurta" qismlari. 1. Duxoba. Guldo'ziy uchlari tutushgan va "chashmi bulbul choki bilan tikib chikilgan uchburchaklar "nim xisht" - "yarim qisht" deb nom olgan. XIX asr 80- yil.

2. Duxoba. Zamindo'ziy guldo'ziy texnikasi. "xasht kitoba"- "sakkiz kitob" kompozitsiyasi. "nim xisht uchburchak" " mavji du ruya" choki bilan tikilgan. XIX asr 90- yil.



1,2,3, ayollar kamzulining qaytarma yoqalari. Duxoba "Guldo'ziy" texnikasi. XIX asr 80- yil.

1. Duxoba. "Guldo'ziy-pulakchado'ziy". 2. Xonaki duxoba "Guldo'ziy-pulakchado'ziy". 3 Duxoba "Guldo'ziy" texnikasi. 4 Duxoba "mavji yak ruya" choki bilan tikilgan. 5. Duxoda "Guldo'ziy" texnikasi. "qo'shmi" guli.



So'zananing ayrim qismlari. Duxoba. XIX asr boshlari.



"Darxam" turidagi julning bir qismi. Duxoba "guldo'ziy-zamindo'ziy" texnikasi. Usto Amonjon. XIX asr oxiri.



Julning bir qismi. Duxoba. "Zardo'ziy- birishimdo'ziy" texnikasi. quyidagi uchburchak "mavji chor dap chor" tikilishi bilan tikilgan. XIX asrning 80 -yil. "Darxam" turidagi julning bir qismi. Duxoba "guldo'ziy" texnikasi. XIX asr oxiri.



"Se gula" julining bir qismi. Duxoba. Tikishda skan' "zarrin" shoyi ip va rangli iplardan foydalanilgan.
XIX asrning 80 -yil oxiri.

IV. Adabiyotlar ro'yxati

Prezident I.A. Karimov asarlari:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" Toshkent 2008
2. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" / Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekistan, 1999. 7-jild. 132-155 bet
3. "Ma'naviyat va komillik" Toshkent 1997

2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Bulatov S. S. "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati", Toshkent, Mehnat, 1991 yil.
2. Bulatov S. S., Ashurova M. O. "Amaliy san'atdan qisqacha lug'at" Toshkent: qomuslar bosh taxririya, 1992 yil.
3. Bulatov S. S., Dadashev D. "Naqsh alifbosi", Toshkent, Cho'lpon, 1999 yil.
4. Ganchorova P. A. "Buxoro zardo'zlik san'ati", Toshkent, 1986.
5. Jabborova D. "Zardo'zlik texnologiyasi fanini o'qitish uslubiyoti" Toshkent, 2001 yil.
6. Aminov N. "Biz zardo'zlarmiz" O'zbekiston, Toshkent, 1981 yil.
7. A.S.Morozova, N.A.Avedova, S.S.Maxkamova «Uzbekiston xalk san'ati» G. Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976 y.
8. Uzbek sovet ensiklopediyasi. Toshkent 1978 y.
9. Z.Abdullaeva, N.Kosimova, M.Atoeva «Buxoro ayollari» Buxoro 1997
10. «Zolotoe shitya Buxare» A.I.Sidarenko, A.R.Artikov Toshkent 1981 y.
11. «Uzbek xalk Amaliy bezak san'ati» S.Bulatov Toshkent 1991 y.
12. D.Fariddinova «Dekorativno prikladnoe iskusstva» Moskva 1976 y.
13. Saddikova N. «Uzbek milliy kiyimlari. XIX-XX asrlar». Toshkent 2003 y.

Internet saytlar.

www.zarduz.ru
www.ziyonet.uz
www.kitob.uz
www.hunar.uz

Mundarija

Reja	1
Summary	2
Kirish	3-5
I BOB. Buxoro zardo'zlik san'ati haqida ma'lumot.	6-10
1.1. Buxoro zardo'zlik san'atiga bir nazar	
1.2. Zardo'zlik hunarining tashkil etilishi	11-20
1.3. Zardo'zlik san'atining tarixi	21-26
II BOB. Zardo'zlikda kompozitsiyasi tuzish va tikish jarayonining borishi.	27-37
2.1. Zardo'zlik san'ati turlari, tikish uslublari va ishlatiladigan xom ashyo va asbob uskunalar.	
2.2. Zardo'zlikda naqshlarning qo'llanilishi va kompozitsion yechimi	38-60
2.3. Zardo'zlikda panno (namoyon naqsh) bajarish jarayoni	61-63
a) Panno uchun kompozitsiya tuzish	64-65
b) Amaliy ishning tikish jarayoni	66-67
III. Xulosa	68-70
IV. Zardo'zlik terminlari lug'ati	71-79
V. Ilova	80-95
VI. Foydalanilgan adabiyotlar	96